

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
MUQUMIY NOMIDAGI
QO'QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
T A R I X F A K U L T E T I

«Tarix» o'qitish metodikasi 4-kurs talabasi

Dadaboev Davronning

Mavzu: “IX-XII asrlarda Uygʻonish davri
madaniyati.” mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: **Ahmedov R.**

QO'QON – 2019

Mavzu. „IX-XII” asrlarda Uygonish davri madaniyati.”

Kirish.

Asosiy qism:

I Bob. Uygʻonish davri va uni vujudga keltirgan tarixiy shart-sharoitlar.

1.1.- IX-XII asrlarda Oʻrta Osiyo xalqlari hayotida yuz bergan uygʻonish davrining kelib chiqishiga sabab boʻlgan omillar

1.2. Oʻrta Osiyoda kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning madaniy yuksalishga koʻrsatgan taʼsiri

II Bob. Buyuk ajdodlarimizning jahon ilm-fani taraqqiyotiga qoʻshgan hissalar.

2.1. Oʻrta Osiyoda islom madaniyatini yuksalishiga katta hissa qoʻshgan buyuk hadisshunos va fiqhshunos allomalar va islom madaniyatining gullab-yashnashi.....

2.2. IX-XII asrlarda Oʻrta Osiyo xalqlari xoʻjaligi, moddiy madaniyati, meʼmorchilig va sanʼat.....

Xylosa

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar roʻyxati.....

.....

MUNDARIJA

Kirish

.....

I Bob. Uygʻonish davri va uni vujudga keltirgan tarixiy shart-sharoitlar.

1.1.- IX-XII asrlarda Oʻrta Osiyo xalqlari hayotida yuz bergan uygʻonish davrining kelib chiqishiga sabab boʻlgan omillar

1.2. Oʻrta Osiyoda kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning madaniy yuksalishga koʻrsatgan taʼsiri

II Bob. Buyuk ajdodlarimizning jahon ilm-fani taraqqiyotiga qoʻshgan hissalar.

2.1. Oʻrta Osiyoda islom madaniyatini yuksalishiga katta hissa qoʻshgan buyuk hadisshunos va fiqhshunos allomalar va islom madaniyatining gullab-yashnashi

2.2. IX-XII asrlarda Oʻrta Osiyo xalqlari xoʻjaligi, moddiy madaniyati, meʼmorchilik va sanʼat

Xylosa

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar roʻyxati.....

Kirish

Bitiruv loyiha ishining dolzarbligi. Istiqlolimiz sharofati bilan «biz tariximiz, madaniyatimizni o‘zimiz va butun dunyo uchun ham qayta tiklayotgan» hozirgi o‘tish bosqichida O‘zbekiston tarixi fani va uning milliy istiqlol mafkurasi, milliy g‘oya ruhida tadqiq etish va o‘qitish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Ta’lim tizimining barcha bosqichlarida O‘zbekiston tarixi o‘qitilmoqda. Bu fanni o‘qitish va uni butun xalqlar ommasi ongiga va qalbiga singdirish borasida birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov respublikaga birinchi rahbar bo‘lib kelganidan boshlaboq tarix bilan qurollanish, ajdodlar merosini o‘rganish va u bilan fahrlanish to‘g‘risida quyidagilarni ta’kidlaganlar: *“...Ajdodlarimiz insoniyat taraqqiyotiga bemisl hissa qo‘shgan sivilizatsiyalarni yuzaga keltirganlar, olamshumul kashfiyotlar qilganlar. Xorazmiylar, Farg‘oniylar, Beruniylar, Ibn Sinolar ilm-fan rivojini belgilab bergan. Bu haqiqatni hech kim inkor eta olmaydi.*

...Xorazm Ma’mun akademiyasi ko‘p narsadan dalolat beradi. Uni butun dunyo tan olgan, u erda ne-ne buyuk olim va mutafakkirlar ilm-fan bilan mashg‘ul bo‘lgan. Biz mustaqillik yillarida shu akademiyani yangi asosda qayta tiklaganimiz, YUNESKO bilan hamkorlikda uning 1000 yilligini xalqaro miqyosda keng nishonlaganimiz Vatanimizning yangi tarixidagi unutilmas voqealardan biri bo‘ldi. Bularning hammasini inobatga oladigan bo‘lsak, qani, aytinglar, bizning buyuk millat, ulug‘ xalq ekanimizni isbotlash uchun yana qanday dalil kerak?

Bu bilan g‘ururlanishga, faxrlanishga barchamiz haqlimiz, albatta. Ayni paytda ajdodlarimizga munosib bo‘lish, bu hayotda hech qachon bir joyda to‘xtab qolmasdan, oldimizga katta maqsadlarni qo‘yib, g‘urur bilan yashashimiz lozim.¹

Prezidentimiz SH. Mirziyoev o‘z nutqida “ *...xalqimiz tarixida o‘chmas iz qoldirgan Abu Rayxon Beruniy, Muxammad Muso Xorazmiy, Maxmud Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Pahlavon Mahmud va boshqa ko‘plab allomalar, shoir va mutafakkirlarning nomlari jaxon sivilizatsiyasi tarixiga xaqli ravishda*

¹Каримов И. Она юртимиз бахту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. Т.: Ўзбекистон. 2015. Б. 120.

oltin xarflar bilan bitilgan” deb bildirgan fikrlari allomalarimizning jaxon sivilizatsiyasiga qo‘shgan xissasi qanday teran ekanligidan dalolat beradi.²

O‘zbekiston tarixi fanini ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida va bosqichlarida o‘qitish borasida davlat va hukumatning ko‘plab qaror va farmonlari qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2012 yil 27 yanvardagi qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi qoshida O‘zbekistonning eng yangi tarixi bo‘yicha jamoatchilik ilmiy Kengashi va Markazi tashkil etildi. Kengash va Markaz O‘zbekistonning eng yangi tarixini yaratish, O‘zbekiston tarixidan darslik, qo‘llanmalar, xrestomatiyalar yaratish bo‘yicha tashkiliy va ilmiy ishlarni boshlab yubordi, joylarda ilmiy seminarlar o‘tkazdi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 28 dekabridagi 365-sonli *«Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim hamda oliy malakali va ilmiy-pedagogik kadrlarni attestatsiyadan o‘tkazish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»*gi qarorida oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim institutlariga kiruvchi talabgorlar doktorlik dissertatsiyasini himoya qilguncha O‘zbekistonning yangi tarixi bo‘yicha imtihon topshirishlari, katta ilmiy xodim – izlanuvchi hamda mustaqil izlanuvchi sifatida o‘qish uchun kirayotgan shaxslar O‘zbekiston tarixi bo‘yicha kirish imtihonlari topshirishlari shart qilib qo‘yildi. O‘z - o‘zidan ravshanki, endilikda O‘zbekiston tarixi fanining umumiy, o‘rta va oliy ta’lim hamda oliy ta’limdan keyingi ta’lim tizimida o‘rni va roli yanada ortadi. SHu bois bu fandan ta’lim beruvchi va tadqiqot ishlari olib borayotgan ilmiy - pedagogik xodimlarning mas’uliyati yanada kuchayadi, ularning ilmiy - pedagogik salohiyatiga, o‘quv-metodik hamda zamonaviy axborot texnologiyasi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalariga bo‘lgan talab ham ortib boradi.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2013 yil 18 yanvarda 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy - iqtisodiy rivojlantirish

²Мирзиёев Ш. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз. Т.: Ўзбекистон. 2017. Б. 241

yakunlari hamda 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida mustaqillik yillarida respublikamizda halq maorifi, oliy va o'rta maxsus ta'limida amalga oshirilgan ulug'vor ishlar umumlashtirilib berildi. *«Ta'lim sohasidagi ishlarimizni sarhisob qilar ekanmiz – deb ko'rsatdi I. Karimov, - Fransiya* *dunyoning eng yaxshi beshta biznes maktabi qatoriga kiradigan «Inssad» xalqaro biznes maktabining 2012 yilgi «Innovatsiyalarning global indeksi» ma'ruzasida bayon etilgan ma'lumotlarni keltirish o'rinli, deb o'ylayman. Ma'ruza Jahon intellektual mulk tashkiloti bilan hamkorlikda tayyorlangan. Ushbu ma'ruzada dunyoning 141 mamlakatidagi innovatsion rivojlanish kompleks tarzda tahlil qilingan. Tahlilning asosiy tarkibiy qismlaridan biri inson kapitalini rivojlantirish darajasi bo'lib, mazkur ko'rsatkich bo'yicha bizning mamlakatimiz 35 - o'rinni egallagan. Ta'lim tizimini rivojlantirish darajasi bo'yicha esa O'zbekiston - shunga e'tibor beringlar - dunyoning 141 mamlakati orasida ikkinchi o'rinni band etgan»¹.*

Xozirgi kunda oliy ta'lim muasasalarida ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkiliy - huquqiy asoslarini o'rganish va taxlil etish o'ta dolzarb vazifalardan biri xisoblanadi. Oliy ta'lim muassasalarining ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishda quyidagi: ta'lim to'g'risidagi qonun xujjatlari, qonun osti xujjatlari jumladan farmonlar, farmoyishlar, qarorlar va buyruqlar kabi tashkiliy huquqiy xujjatlar qo'llanilmoqda. Yuqorida qayd etilgan normativ xujjatlar bilan amalga kiritilgan o'quv dasturi, O'zbekiston tarixi fanining nazariy va amaliy muammolari, O'zbekiston tarixi fanini o'qitishdagi innovatsiyalar, o'quv dasturi, ma'ruza matnlari, O'zbekiston tarixi fanidan tayyorlanayotgan keyslar, amaliy topshiriqlar, nazorat savollari shu kunga qadar oliy ta'lim muasasalari professor-o'qituvchilari tomonidan lozim darajada o'rganilmagan. Bu xolatlar oliy ta'lim muasasalarida qo'llaniladigan ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkiliy-huquqiy xujjatlarini va ular asosida ishlab chiqiladigan lokal xujjatlarni xar tomonlama nazariy va amaliy jixatdan o'rganish va taxlil etishni dolzarbligidan dalolat beradi.

¹ Халқ сўзи. 2013 йил 19 январь.

Bitiruv loyiha ishining maqsadi. IX-XII asrlar O'rta Osiyo xalqlari hayotida yuz bergan uyg'onish davri. Ajdodlarimizning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi mavzusi o'qitishning nazariy va amaliy masalalarini tadqiq etish, fan yuzasidan elektron o'quv moduli ishlanmasini shakllantirish hamda o'qitishni takomillashtirish bo'yicha xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Bitiruv loyiha ishi maqsadidan kelib chiqib **quyidagi vazifalar belgilab olindi:**

- *oliy ta'lim muassasalarida o'qitilayotgan IX-XII asrlar O'rta Osiyo xalqlari hayotida yuz bergan uyg'onish davri mavzusi ustivor yo'nalishlarini nazariy va amaliy tahlil qilish;*
- *IX-XII asrlar O'rta Osiyo xalqlari hayotida yuz bergan uyg'onish davri mavzusini o'qitishda yoshlarni ajdodlarimizdan faxrlanish ruxida tarbiyalash.*
- *IX-XII asrlar O'rta Osiyo xalqlari hayotida yuz bergan uyg'onish davri mavzusi ilmiy mohiyatini ochib berish;*
- *IX-XII asrlar O'rta Osiyo xalqlari hayotida yuz bergan uyg'onish davri mavzusini elektron o'quv moduli ishlanmasini tayyorlash;*
- *oliy ta'lim muassasalarida IX-XII asrlar O'rta Osiyo xalqlari hayotida yuz bergan uyg'onish davri. Ajdodlarimizning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi mavzusini o'qitishni yanada takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.*

Bitiruv loyiha ishining ob'ektini Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filialida O'zbekiston tarixi fanini o'qitish bo'yicha nazariy va amaliy-metodik masalalarni o'rganish tashkil etadi.

Bitiruv loyiha ishi amaliy ahamiyati shu bilan belgilanadiki, tadqiqot natijasida olingan xulosalar "O'zbekiston tarixi" fani IX-XII asrlar O'rta Osiyo xalqlari hayotida yuz bergan uyg'onish davri mavzusi bo'yicha tashkiliy xarakterga ega bo'lgan hujjatlarni ishlab chiqish uchun amaliy dastur bo'lishi

mumkin. Olingan xulosa va bildirilgan takliflardan ta'lim muassasalari faoliyatida, O'zbekiston tarixi fanlarini o'qitishda va takomillashtirishda foydalanish mumkin.

Mavzuning tuzilishi va xajmi. Bitiruv loyiha ishi kirish, ikki bob, to'rtta paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat holda yoritib berilgan.

1.1. IX-XII asrlarda O'rta Osiё xalklari xayotida yuz bergan uygonish davrining kelib chikishiga sabab bulgan omillar.

Mustaqillikni birlik, o'zaro inoqlik va bir maqsad yo'lida kurashishni natijasida qo'lga kiritilishi va saqlab qolinishi mumkinligini tarix bir necha bor isbotlagan. Mustaqillik ilm-fan, ma'rifatga tayansagina, ijtimoiy-madaniy taraqqiyotda yuksak yutuqlarga erishishi mumkin. Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" kitobida ta'kidlaganlaridek: "... jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch-ma'rifatdir"³.

IX-XII, XIV-XV asrlarda Markaziy Osiyoda ilm-fan va madaniyat, falsafa, tarix katta qadamlar bilan olg'a tomon rivojlana boshladi. Bu taraqqiyot uzoq davom etdi. o'lkamizda yuz bergan ilm-fan, madaniyat va san'at sohalaridagi o'zgarishlarning asosiy hislatlaridan biri insonparvarlik g'oyasini doimo ustun bo'lganligidir.

Movarounnahrda islom dinining tarqalishi yaqin SHarqda arab xalifaligining shakllanishi va rivoji bilan uzviy bog'liqdir. Bu xalifalik islom bayrog'i ostida asta-sekin Arabiston chegarasidan chiqib, o'rta SHarq tomon yurish boshlab, u

³ Islom Karimov. Biz kelaqagimizni ўз қўлимиз билан қурағимиз. Асарлар, 7-жилд. – Т.: "Ўзбекистон", 1999 йил, 135-бет.

erdagi mamlakatlarni bosib ola boshladi. Bu jarayon islomni tarqatish bilan uzviy bog‘liq holda olib borildi.

Arablar Movarounnahrda o‘rnatilgan siyosiy hokimiyatni mustahkamlash, uning barqarorligini ta‘minlash uchun islom dinining targ‘iboti va uni erli aholi o‘rtasida, ijtimoiy tabaqalaridan qat‘iy nazar, kengroq yoyishga alohida ahamiyat berdilar. Ular erli aholining ma‘naviy hayotida muhim o‘rin tutgan otashparastlik, moniy, budda kabi dinlarni xurofiy soxta dinlar deb e‘lon qiladilar.

Islom dinini qabul qilib, musulmon bo‘lgan maxalliy axoli vakillari dastlabki yillarda xiroj va jizya soliqlaridan ozod etilib, ancha-muncha imtiyozlar beriladi. SHu bilan birga Movarounnahrda musulmonchilikning mahalliy odat, udumlar bilan uyg‘unlashuvi ro‘y berdi.

Keskin kurashlar, qarshiliklarga qaramay erli xalq bosqinchilarga qaram bo‘lib qoldi. Buyuk olim Beruniy va tarixshunos Narshaxiy tavsificha bosqinchilar erli xalqlarga ham moddiy, ham ma‘naviy jihatdan katta zarar keltirdi - erli hokimiyat tugatildi, shaharlar qadimgi madaniyat yodgorliklari, mavjud yozuvlar yo‘q qilindi, kitoblar yondirilib yuborildi, san‘at namunalari barbod bo‘ldi.

Bu davrda Movarounnahr va Xurosonda sodir bo‘lgan murakkab siyosiy vaziyatning tadrijiy rivoji va u bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlar mamlakat aholisining madaniy hayotiga ham ta‘sir etdi. Movarounnahrda arab tilining davlat va fan tili sifatida joriy etilishi bilan uni o‘zlashtirishga bo‘lgan intilish ham ortdi. Ayniqsa, mahalliy zodagonlar arab tilini xalifalik maomurlari bilan yaqinlashish, mamlakatda o‘z siyosiy mavqelarini tiklab, uni mustahkamlashning garovi deb bildilar va uni o‘zlashtirishga astoydil kirishdilar. Natijada ko‘p vaqt o‘tmay Movarounnahrda arab tili va yozuvini o‘z ona tillaridek o‘zlashtirib olgan bilimdonlar paydo bo‘ldi. Bu vaqtda arablar orasida hokimiyatni boshqarishga yaroqli bilimdon ma‘murlar juda oz bo‘lgan. CHegaralari tobora kengayib borayotgan Abbosiylar xalifaligi uchun ikki tilni biluvchilar juda zarur edi. Dastlabki ma‘lumotlarni o‘z ona yurtlari Movarounnahr, Xorazm va Xurosondagi madrasalarda olgan o‘rta Osiyolik olimlar xalifalikning

markaziy shaharlari: Bagʻdod, Damashq, Qohira, Kufa va Basraga borib bilimlarini oshirdilar va asarlarini oʻsha davrda ilm tiliga aylantirilgan arab tilida yozishga majbur boʻldilar.

SHunday qilib, arab tili va falsafasining rivojlanishi, islom dinining keng yoyilishi vositasida Markaziy Osiyoga antik dunyoning progressiv qarashlari kirib keldi.

Xalqning mustaqillik uchun kurashi natijasida IX asrning oxirlarida oʻrta Osiyoda erli Samoniylar davlati vujudga keldi, bu - arab xalifaligiga qaramlikdan qutulish, mustaqillikni qoʻlga kiritish edi. 3-4 asr davomida Samoniylardan tashqari yana Qoraxoniylar, Gʻaznaviylar, Xorazmshohlar davlatlari vujudga keldi.

Samoniylar davrida qudratli markazlashgan davlatning vujudga kelishi natijasida Movarounnahr va Xurosonda maʼlum barqarorlik qaror topdi. Bu xolat mamlakat iqtisodiy va madaniy hayotiga katta taʼsir koʻrsatdi. Samoniylar sulolasining koʻpgina namoyondalari adabiyotga, ilm-fanga, meʼmorchilikka homiylik qildilar. Xuddi shu davrda ulkanlashib borayotgan Arab xalifaligi uchun ham ilm va ilm ahli suv va havodek zarur edi. Davlatni boshqarishda abbosiy xalifalar maomuriyati koʻplab bilimdon samoniylarga muhtoj edi. Oʻrta Osiyodagi mamlakatlarning koʻpgina tolibi ilmlari xalifalikning markaziy shaharlari: Damashq, Qoxira, Bagʻdod, Kufa va Basraga borib ilm oldilar va arab tilida ijod qildilar. Bu davrda, ayniqsa, Bagʻdod shahri SHarqning yirik ilm va madaniyat markazi edi.

Al-Mansur sulolasidan boʻlmish beshinchi xalifa Xorun ar-Rashid (879-809) davrida xalifalik rivojlanib, poytaxt Bagʻdod yanada kengaydi. Ayniqsa Xorun ar-Rashidning fors xotinidan boʻlgan oʻgʻli Abdulloh al-Maʼmun 813 yilda Bagʻdod xalifasi deb eʼlon qilingandan keyin Bagʻdodga alohida ahamiyat beradi.

Al-Maʼmun tarixda davlat arbobi sifatidagina emas, balki ilmu fanning homiysi sifatida shuhrat qozondi. U Marvga kelgan paytida saroyga Xuroson va

Movarounnahrning eng buyuk olimlarini to'play boshlaydi. So'ngra ulari Bag'dodga olib keladi. Al-Ma'mun bilan birga Bag'dodga kelgan olimlar fan tarixida "al-Marviza" ya'ni "Marvliklar" nomini olgan edi. Lekin shungacha Bag'dodda olimlar bo'lmagan deyish noto'g'ri. Ummaviylar davrida Damashqqa ko'plab tarjimonlar yig'ilib, tabobatga oid kitoblarni yunon va suryon tillaridan tarjima qildirib boshlagan edilar. Keyinchalik bu tarjimonlar Bag'dodga keltirilgan.

Xalifa al-Ma'mun Bag'dodga kelgach, "marvlik" va "damashqlik" olimlarni yirik va yagona ilmiy muassasa - "Bayt ul- hikma", ya'ni "Bilimlar uyi" yoki "donishmandlik uyi"ga birlashtirdi. Keyinchalik bu muassasani evropalik olimlar "al-Ma'mun akademiyasi" deb ataydilar.

Al-Ma'mun "Bayt ul-hikma"ning faoliyatiga katta ahamiyat beradi. Avvalo, u Bag'dodning nasroniylar yashaydigan SHamossiya mahallasida astronomik kuzatishlarni yo'lga qo'yadi. Bag'dod tekis erda joylashgani uchun hududida rasadxona qurish befoyda edi. SHuning uchun xristian cherkovidan foydalanadi. Bu ishga xalifa al-Ma'mun bilan Marvdan kelgan olimlar orasida Muhammad al-Xorazmiylar mutasaddilik qiladi, yosh Ahmad al-Farg'oniy ham ularga yordam beradi.

O'sha davrda "Bayt ul-hikma"ning eng yirik kutubxonasi mavjud bo'lib, unga vatandoshimiz Muhammad al-Xorazmiy mudirlik qilardi. Kutubxonada 400 ming jild xind, yunon, suryoniy, arabiy, forsiy tillarda yozilgan qo'lyozma kitoblar saqlanardi. Al-Xorazmiy o'sha kitoblardan foydalanib, sind-xind usuli bilan "Zij al-Xorazmiy" nomli astronomik asarini yozgan.

Xalifa al-Ma'mun taklifi bilan Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy shayx ul baytul donish - "Donishmandlar uyi"ning boshlig'i etib tayinlandi.

Aynan xalifa Ma'munning SHarq olimlariga nisbatan chuqur hurmat bilan qaraganligi sababli o'rta Osiyoning eng yirik olimlari Bag'dodga jamlandi.

Xuddi shu vaqtlarda arablar orasida “Ilm daraxtining asosiysi Makkada-yu, hosili Xurosonda pishadur” degan ajoyib maqol tarqalgan edi. Nemis olimi YU.Rushka IX-X asrlarda arab tilida yozilgan asarlar ro‘yxati bilan tanishib chiqib shunday xulosaga kelgan. “Deyarli barcha olimlar Xuroson, Movarounnahr va Farg‘onada etishib chiqqan edilar. Ularning har birlari ismlari oxirida vatanlari nomini qo‘shib aytishni odat qilgan edilar”. Bag‘doddagi ilmiy markaz haqida akademik V.V.Bartolpd shunday fikr aytadi. “Ma‘munning xizmatlari evaziga Bag‘dod o‘ziga musulmon olamida ma‘lum bo‘lgan va qaysi burchagida bo‘lmasin eng kuchli adabiyotchi va olimlarni o‘z bag‘riga chaqirib oldi. Bunda O‘rta Osiyoning ulushi buyuk edi”. SHunday qilib, xalifa Ma‘mun davrida Bag‘dodda kutubxonalar ochilib, G‘arb va SHarqning qadimgi dunyosi, merosi o‘rganila boshlagan edi. U “Bayt ul-hikma”da aytilgan koinot va er yuzidagi muammolarni bajarish uchun 70 dan ortiq etuk olimlarni jalb etgan. Ahmad al-Farg‘oniy ham bu topshiriqni bajarishga kirishib, er yuzi xaritasini tuzishda faol ishtirok etgan. Ushbu xarita “Ma‘munning Dunyo xaritasi” nomi bilan yuritilib, 840 yillarda tugallangan. Lekin bu xarita saqlanib qolmagan bo‘lsa ham, Ahmad al-Farg‘oniy asarlari orqali dunyo xalqlari mazkur xarita bilan tanishishga muyassar bo‘lganlar.

Turonning jahonga mashhur olimlaridan biri Muhammad ibn Muso Xorazmiy bo‘lib, u taxminan 783 yilda tug‘ilgan va 850 yilda Bag‘dodda vafot etgan.

Xorazmiy xalifa Ma‘mun rahnamoligida islom SHarqining fanlar akademiyasi - “Bayt ul-hikma” (“Donishmandlar uyi”)da ishladi. Bu ilm dargohida u juda ko‘plab astronomik kuzatishlar olib bordi. Uning nomini tarixda abadiy qoldirgan asarlaridan biri - “Al-Jabr val muqobala”dir. Bu asar G‘arb va SHarq olimlariga algebra fani bo‘yicha dasturiy amal bo‘lib xizmat qildi. “Algoritmi” va “Algebra” degan atamalar Xorazmiy nomi bilan bog‘liqdir. Al-Xorazmiyning arifmetikaga bag‘ishlangan bu kitobi XII asrdayoq Ispaniyada lotin tiliga tarjima qilingan. O‘sha paytlarda ko‘chirilgan nushasi hozir ham Kembrijda saqlanmoqda. Bu asar bir necha asrlar davomida Evropa universitetlarida “Algoritmi kitobi” nomi

bilan mashhur bo'lgan. Rim papasi Silpvesto rim raqamlari o'rniga Xorazmiy ishlab chiqqan arab raqamlarini Evropada isteomolga kiritish to'g'risida farmon berdi.

Xorazmiy, shuningdek, "Kitob surat al-az" ("Er surati") degan risola ham yozdi. Asarda Ptolomeyning "Geografiya" nomli kitobini butunlay qayta ishlab, SHarq mamlakatlari to'g'risida qimmatli ma'lumotlar berdi.

Bu kitobda Orol dengizining tasviri ham berilib, 637 ta muhim joylar, 209 ta tog'ning geografik tafsiloti berilgandi. Olimning bu kitobi SHarqda geografiya fanining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Xorazmiy o'zining matematika, geografiya, tarix, musiqa, astronomiya va boshqa fanlarga taalluqli asarlari bilan jahon fani taraqqiyotiga keng yo'l ochib berdi. Jahon ahlining 1983 yili Muhammad Muso Xorazmiyning 1200 yilligini zo'r tantana bilan nishonlaganligi buyuk vatandoshimizga ko'rsatilgan cheksiz hurmatidir. SHunday qilib, buyuk alloma Muhammad Muso Xorazmiyning nodir asarlari, yaratgan ta'limoti, ijtimoiy-falsafiy qarashlari hozirgi avlod uchun bitmas-tuganmas xazina, mustaqilligimiz uchun xizmat qiladigan bebaho ma'naviy boylikdir.

Qomusiy allomalardan yana biri al-Farg'oniy taxminan 780 yilda Farg'ona vodiysining Quva shahrida tug'ilib, 861 yilda Qohirada vafot etgan. Ahmad Farg'oniyning ilmiy faoliyati Bag'dod bilan, ulug' mutafakkir olim Muhammad Muso Xorazmiy rahbarligida faoliyat ko'rsatgan "Bayt ul-hikma" bilan bog'liqdir. U Bag'dod va Damashqdagi rasadxonalar qurilishiga qatnashib Bag'doddagi falakshunoslik maktabiga rahbarlik qiladi. Keyinroq Misrda yashagan chog'ida Nil daryosida joylashgan Ravz orolida suv sathini o'lchaydigan nilometr asbobini takomillashtirdi. Bu asbob, hozirgacha saqlanmoqda. Uning atrofidagi qurilmalarga granit toshlarga oyat, hadis so'zlari bitilganini, tabiatga bo'lgan muhabbat ramzi deb bilsa bo'ladi.

Markaziy Osiyoda taraqqiy etgan islomiy fan va madaniyatning dastlabki atoqli vakillaridan biri olamshumul alloma Ahmad ibn Muhammad Farg'oniyni, arab dunyosida "Hisob" (matematik), Ovro'pada esa "Alfraganus" deb atashgan.

Ahmad al-Fargʻoniy 25 yoshida Xoʻjand orqali Samarqandga, soʻng Buxoro orqali xalifa Maʼmun ibn Xorun ar-Rashid huzuriga borib ilm-fan xizmatida boʻlgan. Uning nomini jahonga mashhur qilgan asari “Astronomiya negizlari” boʻlib unda buyuk mutafakkir oʻzi yashagan davrdagi falakiyotga oid bilimlarni tartibga soldi va uni yangi xulosa va natijalar bilan boyitdi. “Astronomiya negizlari” asari Ovroʻpada Kopernikkacha boʻlgan falakiyot ilmidan asosiy qoʻllanma boʻlib xizmat qildi. SHuning uchun allomaning asarlari XII asrda lotin tiliga ikki marta va XIII asrda boshqa Evropa tillariga tarjima etilgandan soʻng uning lotinlashtirilgan nomi “Alfraganus” shaklida Gʻarbda bir necha asr davomida keng tarqaldi.

Allomaning ilm-fan va jahon maʼnaviyatida tutgan oʻrni va roliga oʻrta asr SHarq tarixchilari Abul Faraj, al-Kiftiy ibn Nazimlarning asarlarida alohida toʻxtalib oʻtgan. SHuningdek, soʻnggi yillarda nashr etilgan ilm va madaniyat tarixiga bagʻishlangan kitoblarda ham al-Fargʻoniy buyuk olim sifatida qayd etiladi. SHu hususda Prezidentimiz I.A.Karimov shunday degan edilar: “Tariximiz necha-necha ming yilliklarga borib taqaladi. Gapning indollosini aytishimiz kerak: ayrim odamlar hali lungi tutib yurgan davrlarda bizning ota-bobolarimiz yulduzlar jadvalini tuzganlar”⁴.

Abu Nasr Farobiy (873-950) nafaqat Markaziy Osiyo va SHarqning, balki butun dunyoning asrlar osha eʼtirof etib, katta hurmatga sazovor boʻlib kelayotgan buyuk mutafakkir va qomusiy olimi, mashhur faylasufidir.

SHarq uygʻonish davrining ulugʻ namoyondasi boʻlgan Farobiy 873 yilda Aris daryosining Sirdaryoga quyiladigan joyidagi Forob qishlogʻida tugʻilgan. U dastlabki bilimni Farobda olgach, Toshkent, Samarqand, Buxoro va Markaziy Osiyoning boshqa oʻlkalarida tahsil oladi, lekin u oʻzining bu erlarda ilmga ehtiyojini qondira olmaydi. Ilmga katta hayotiy ehtiyoj sezgan Farobiy jahon ilm markazlaridan biri Bagʻdodda qoʻnim topdi. Bu erda u tinmay oʻqib oʻrganadi, arab tili va adabiyotini mukammal egalladi, SHom, Misr oʻlkalarida oʻqidi, mudarrislik qildi.

⁴ Ислом Каримов. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Асарлар, 1-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 1996 йил, 203-бет.

Farobiy ilmning barcha sohalarida ijod qilib, buyuk asarlar yozdi. XII-XIII asrlarning yirik olimi Zahiriddin al-Bayhaqiy fikricha, islom o'lkalari olimlari orasida unga teng keladigan odam dunyoga kelgan emas.

Farobiy yirik faylasuf, tilshunos, mantiqchi, riyozatchigina emas, shu bilan birga, sotsiolog, tibbiyotchi, psixolog, musiqa ilmining nazariyotchisi va amaliyotchisi hamdir. "Falsafani o'rganishda nimalarni bilish kerak?", "Falsafiy savollar va ularga javoblar", "Mantiqqa kirish", "She'r san'ati", "SHoirlarning she'r yozish san'ati va qonunlari haqida", "Ilmlarning kelib chiqishi to'g'risida", "Aql to'g'risida", "Inson aozolari haqida risola", "Fozil shahar odamlari qarashlari", "Davlat haqida" kabi 160 dan ortiq qimmatli asarlar yozdi .

Qadimgi yunon falsafasini, xususan, Aristotel asarlarini chuqur va mukammal bilish, tarjima qilish, ilmiy sharhlar yozish, targ'ib tashviq ishlarida Farobiyga tenglashadigan donishmand bo'lmagan.

Farobiy jaxon fani taraqqiyotiga qo'shgan bebaho hissasi bilan shu darajada katta shuhratga erishganki, uni hayotligidayoq, Aristoteldan keyingi yirik mutafakkir Muallim as-Soniy "Ikkinchi muallim", "SHarqning Aristoteli" nomlari bilan atashdi.

Farobiy ilk o'rta asr sharoitida aql va ilm tantanasi, ma'naviy ozodlik, inson takomili va adolatli jamiyat uchun kurashgan siymo edi. SHu o'rinda Farobiyning ijtimoiy hayot, jamiyat, masalalaridagi muhim falsafiy qarashlari katta ahamiyatga egadir. U o'zining "Fozil shahar odamlarining qarashlari" kitobida davlatni har tomonlama etuk, o'zida eng yaxshi insoniy fazilatlarni namoyon qilgan kishilar yordamida boshqarish zarurligini qayd etadi. SHuningdek, u har tomonlama etuk, aholini ilmiy-ma'rifatga olib boruvchi ideal jamiyat haqidagi fikrni olg'a suradi. Farobiy "Fozil shahar odamlarining qarashlari" kitobida davlatni boshqaruvchi hokim Ollohdan boshqa hech kimga bo'ysunmasligi kerak, u tabiatan o'n ikkita xislat fazilatni o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi zarur deydi. SHu bilan birga uning fikricha shahar hokimi bilimli, ma'rifatga havasli, taom eyishda, ichkilikda

o‘zini tiya biladigan, haq va haqiqatni sevadigan, yomonlardan jirkanadigan kishi bo‘lishi lozim.

Allomaning bu asaridagi dono fikrlari hozirgi mustaqillik sharoitida yashab, faoliyat ko‘rsatayotgan shahar, tuman, viloyat rahbarlariga, olimlari, ziyolilari, talabalari, kattayu kichik barcha kishilariga bevosita taalluqlidir.

O‘zbekiston Prezidenti I.A.Karimov “Fozil shahar odamlarining fikrlari” asariga yuqori baho berib shunday degan edi: “Masalan, Farobiyning o‘sha mashhur “Fozil odamlar shahri” asarini esga olaylik. Bundan ming yil muqaddam yaratilganiga qaramasdan, bugungi o‘quvchi ham bu asarni hozirgi murakkab muammolarini hal qilishda asqotadigan muhim fikr va yo‘l-yo‘riqlarini topa oladi”⁵.

Insoniyat Abu Ali ibn Sino (980-1037)ni jahon fanining ulug‘ arbobi, uyg‘onish davri madaniyatining yirik namoyondalaridan biri sifatida biladi.

Buyuk alloma ellik etti yil umr ko‘rgan bo‘lsa, buning 18 yilini ilm-tahsiliga sarf qildi. SHu yillar davomida uch yuzdan ortiq asar yozdi. Uning bu asarlari ilm-fanning barcha sohalariga taalluqlidir. Ana shu asarlari bilan Ibn Sino Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatini dunyo madaniyatining oldingi qatoriga olib chiqdi. SHuning uchun uni “SHayh ur-ra'is” - “Olimlar olimi” deb atashgan edi.Ibn Sino asarlarining 40 dan ko‘prog‘i tibbiyotga, 30 dan ortig‘i tabiiy fanlar va musiqaga oid bo‘lib, qolganlari falsafa, mantiq, ahloq, ilohiyot, ijtimoiy-siyosiy mavzularda edi. Bizga 160 ga yaqin asari etib kelgan. “Kitob ush-shifo” (“SHifo kitobi”), “Donishnoma”, “Kitob ul-koinot” (“Koinot kitobi”) kabi ilmiy asarlari, 5 jildli “Kitob al-qonun fit-tib” (“Tib qonunlari kitobi”)ko‘p asrlar davomida tibbiyotdan asosiy dastur qilib kelindi, hozir ham birqancha dorilfununlarda o‘rganiladi.SHunday qilib, Ibn Sino o‘z asarlarida tabiat, jamiyat rivojlanish qonuniyatlari to‘g‘risida qimmatli xulosalar berib, kishi aqlini nimalarga qodir ekanligini ko‘rsatdi. Tabiat sirlari va haqiqatni bilish mumkinligiga qattiq ishonadi. SHuning uchun ham olim odamlarni bir-biri bilan do‘st, inoq bo‘lib yashashga

⁵ Ислом Каримов. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. Асарлар, 7-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 1999 йил, 90-бет.

chorlaydi. Odamlar sofdil, samimiy do'st bo'lib yashasa, bir yoqadan bosh chiqarsa, har qanday mushkul oson bo'lishiga qattiq ishonadi. Olimning bu g'oyalari hozirgi kunda respublikamiz mustaqilligini saqlashda va mustahkamlashda katta ahamiyatga ega ekanligini, Prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi so'zlari bilan isbotlash mumkin. "YAngi ming yillikka yo'l ochib borar ekanmiz, hammaga do'stlik va hamkorlik qo'lini cho'zamiz"⁶.

Xorazmlik buyuk olim Abu Rayhon Beruniy (973-1048) jahon fani va madaniyati taraqqiyotiga muhim hissa qo'shgan siymolardan hisoblanadi.

Beruniy bilan G'aznada yashagan mashhur tarixchi Abul Fayz Bayhaqiy (1077 yilda vafot etgan) olimga baho berib, bu odam ilmi adabda, narsalarning mohiyatini aniqlashda, handasa va falsafada shu qadar bilimdon ediki, uning zamonida unga tenglashadigan hech kim yo'q edi. XIII asrda yashagan yirik olim YOqut Xamaviy ta'biri bilan aytganda, zamona ilm va aqlda unga teng keladigan boshqa olimni ko'rmadi. Beruniy 16 yoshidan astronomik kuzatishlar olib borganligi ma'lum. Ustozi xorazmlik atoqli olim Abu Nasr ibn Iroq al- Mansur (1035 yilda vafot etgan). 12 ta asarini Beruniyga bag'ishlagan. Dunyoda birinchi globus (diametri 5 m li yarim shar) yasagan. Beruniy Xorazmdagi "Ma'mun akademiyasi"ga rahbarlik qilib bir qancha shogirdlar chiqargan. Beruniy butun kuchi, hayoti, aql-idroki va tafakkurini ilm-fanga bag'ishlagan allomalardan biri edi. Beruniyning ilmiy merosi 150 dan ortiq kitob va risoladan iborat. "Al-qonun al-Maosudiy", "Hindiston", "Geodeziya", "Xronologiya", "Minerologiya", "Saydona" ("Dorivor o'simliklar haqida kitob") asarlarida insoniyat uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan g'oyalarni o'rtaga tashlagan. Ayniqsa, buyuk mutafakkir "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Hindiston" kabi tarixiy asarlarida tabiat, jamiyat taraqqiyoti va uning istiqboli haqida fikr berib, unda mehnatning, ilm-fanning roli beqiyos ekanligini uqtirib o'tadi.

Beruniy jamiyat taraqqiyotini fan taraqqiyotida ko'radi, ilm diniy va hududiy chegaralarga qaramay inson va jamiyatga xizmat qilishi kerak deb hisoblaydi.

⁶ Ислон Каримов. Хавфсизлик ва барқарорлик йўлида. Асарлар, 6-жилд. – Т.: "Ўзбекистон", 1998 йил, 40-бет.

“Mening butun fikri-yodim, qalbim, bilimlarni targ‘ib qilishga qaratilgan, chunki men bilim orttirish lazzatidan bahramand bo‘ldim, buni men o‘zim uchun katta baxt deb hisoblayman”, - deb yozgan edi olim. Allomaning bunday purma‘no so‘zlari hozirgi kunda Prezidentimiz I.A.Karimovning “Kuch bilim va tafakkurda” degan bo‘lardim”⁷, degan so‘zlari bilan hamohangdir.

IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoda o‘rta asr tarixshunosligi rivoj topib, arab va fors tillarida bir qancha yirik tarixiy va geografik asarlar bitilgan. Bu borada Abu Bakr Narshahiyning o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. U 899 yilda Buxoroda tug‘ilib, 959-960 yillarda vafot etgan. Undan meros tariqasida yagona asari “Buxoro tarixi” bugungacha etib kelgan. Uni 1128 yilda quvalik (Farg‘ona) tarixchi Abu Nasr al-Kuboviy qisqartirib, voqealar bayonini davom ettirib fors tiliga tarjima qilgan. Bu tarjimaning qayta ko‘chirilgan va voqealari bayoni (1220 yillargacha etkazilgan nushasi) bizgacha etib kelgan. “Buxoro tarixi” o‘rta Osiyoda islomgacha bo‘lgan diniy e‘tiqod va urf-odatlar, islom dinining tarqalishi, Muqanna voqeasi haqida ma‘lumot beruvchi asosiy manbaa hisoblanadi. Unda somoniylar davridagi voqealar, ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayot keng yoritilgan. SHunday qilib, Narshaxiy merosi xalqimizning ma‘naviy boyligi sifatida avlodlarga xizmat qilib kelmoqda.

IX-XII asrlarda Movarounnahr va Xorazmda adabiyot, she‘riyat rivoj topdi. Uning rivojiga Rudakiy (860-941), Abu Mansur Daqiqiy, Abdulxasan Balxiy va ko‘pgina boshqa shoirlar katta hissa qo‘shdilar.

Rudakiy IX asr oxirida Panjikent yaqinida Panjrudak qishlog‘ida tug‘ildi. YOshlik chog‘idayoq u rud (chang) chalishni yaxshi o‘rgangan, she‘r yozib kuy bastalagan va hofizlik qilgan. Xalq orasida katta obro‘ga ega bo‘lib, hatto Somoniylar hukmdori Nasri ibn Ahmad (914-943) tomonidan sozanda va shoir sifatida saroyga chaqirtirib olingan.

Rudakiy o‘z she‘rlarida ona Vatanini, uning tabiati va aholisini, insoniy his-tuyg‘ularini tarannum etadi. SHoir haqsizlik va adolatsizlikni qoralaydi. Bu

⁷ Ислон Каримов. Биз келажигимизни ўз кўлимиз билан кураимиз. Асарлар, 7-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 1999 йил, 98-бет.

davrning zakovatli shoirlaridan yana biri Daqiqiy edi. Avval u CHag‘oniyon hukmdorlari, so‘ngra samoniylar saroyiga taklif etiladi. Daqiqiy an‘anaviy saroy she‘riyatidan farqli o‘laroq, xalq rivoyatlari va epik dostonlar asosida yangi poetik yo‘nalishda ijod qiladi. U Abu Mansurning nasriy “SHoxnoma”si asosida birinchi bo‘lib, she‘riy “SHohnoma” asarini yaratishga kirishadi. Biroq ming bayt yozib bo‘lgach, shoir o‘z g‘ulomi tomonidan fojiona o‘ldiriladi. Daqiqiyning “Gushtaspnoma” deb nomlangan ming baytini keyinchalik Abul Qosim Firdavsiy o‘z “SHohnoma”sining kirish qismiga qo‘shgan. Abul Qosim Firdavsiy (934-1020) fors-tojik adabiyotining mumtoz shoiri. U dunyoga mashhur “SHohnoma” asarini yaratdi. Bu doston Eron va Turon xalqlarining o‘tmishiga bag‘ishlangan bo‘lib, vatanparvarlik ruhida yozilgan. “SHohnoma” jahon adabiyoti xazinasining noyob durdonalaridan biri hisoblanadi. Asar juda ko‘p tillarga, jumladan, o‘zbek tiliga ham tarjima qilingan.

XI asrda yashab ijod qilgan Mahmud Qoshg‘ariyning hayoti va ijodiy faoliyati to‘g‘risida kam ma’lumotlar etib kelgan. Bobosi Muhammad va otasi Xusayn Qoshqardagi Beregon shahridan bo‘lgan. Qoshg‘ariylar oilasi Bolasog‘unga (Qirg‘izistonning hozirgi To‘qmoq shahri) ko‘chib kelishganda Maxmud hali yosh bola edi. Bo‘lajak olim bu shaharda o‘z ilmini oshirib, arab, fors tillarini o‘rgandi. U yoshlik chog‘idayoq xalq jonli tilidan so‘z va iboralarni qunt bilan yozib bordi, har bir so‘z, iborani sharhlash va ma’nosini aniqlashga intildi. Qoshg‘ariy turkiy xalqlar tarixi, tili, madaniyati, urf-odatlarini puxta o‘rganish maqsadida butun Markaziy Osiyoni kezib chiqdi. Ana shu to‘plagan boy dalillar asosida xalqimizning buyuk olimi “Javohirun naxv fi Lug‘ati turk” (Turkiy tillarning sintaksisi durdonalari) va “Devonu lug‘oti turk” (“Turk tilining lug‘ati”) asarini yaratdi. Olimning bu asari 1074-1075 yillarda yozilgan bo‘lib, hozir bu nodir qo‘lyozma asar Istambulda saqlanmoqda. Asar katta ahamiyatga ega bo‘lib, unga dunyo xaritasini ilova qiladi va rus (Kichik Osiyo)dan to Xitoy hududlarigacha cho‘zilib ketgan erlarda yashovchi turkiy xalqlar tarixi, geografiyasi, urf-odatlari, turmush tarzi, madaniyati to‘g‘risida boy ma’lumotlar beradi. SHuningdek, asarda olim turkiy yozuv to‘g‘risida g‘oyatda qimmatli

fikrlarni bayon qiladi va 18 harfdan iborat turk (uygʻur) alifbosini keltiradi. Asarda imlo masalasida ham muhim maʼlumotlar bor.

Xullas, sheʼriy usulda yozilgan buyuk mutafakkir Mahmud Qoshgʻariyning “Devonu lugʻatit turk” asarida yuksak ezgulik gʻoyalari, mehnatsevarlik, shaxsiy qahramonlik, gʻanimlarga nafrat kabi qarashlar oʻz ifodasini topgan. SHuning uchun bu asar hamon oʻzining ilmiy, tarixiy, maorifiy qimmatini saqlab kelmoqda.

Qorahoniylar saltanati davrining buyuk siymolaridan biri bolasogʻunlik adib YUusuf Xos Hojib boʻlib, hozirgacha bizga maʼlum boʻlgan yagona didaktik badiiy-falsafiy “Qutadgʻu bilig” (“Saodatga boshlovchi bilim”) asari bilan jahonga mashhur va maʼlum. Bu asarda ahloq-odob, ilm-maʼrifat, bola tarbiyasi, jamoat joylarida oʻzini tutish, soʻzning ahamiyati va qadri, mehmondorchilik qoidasi, turmush tarzi va inson maʼnaviy olamining koʻp masalalari yoritilgan. Maʼrifat jarchisi boʻlgan YUusuf Xos Hojib markazlashgan kuchli davlat barpo etish uchun kurashuvchi donishmand, adolatli hukmdor qiyofasini ham chizadi. U xalq va davlat, davlat boshligʻi va fuqaro, olimlar, hokim, qoʻshni davlatlar bilan iqtisodiy, madaniy aloqalar, hukmron tabaqalarning hokimiyat, xalq oldidagi burchi haqida gʻoyatda zarur muammolarni ilgari suradi. SHu bilan birga ulugʻ olim oʻta ziyraklik va donishmandlik bilan turli tabaqadagi kishilarnng dunyoqarashlari, hayot tarzlari, odatlari, ahloqlari haqida falsafiy mulohazalar silsilasini yaratdi. U kishilarni dunyoviy fanlarni chuqur oʻrganishga, yuqori darajada maʼlumotli boʻlishga chaqiradi. Ana shunday falsafiy gʻoyalar ilgari surilgan “Qutadgʻu bilig” asari xalqaro maydonda tan olingan asardir. Olimning mazkur asari xalqimiz maʼnaviy boyligining eng muhim durdonalaridan hisoblanadi.

Turkiy adabiyotning yirik va zabardast vakillaridan biri Ahmad YUgnakiydir. Uning hayoti va ijodiy faoliyati haqida maʼlumot juda kam boʻlib, adibning yagona merosi “Hibat ul- haqoyiq” (“Haqiqatlar argʻumoni”)dir.


Ahmad YUgnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asari oʻzbek adabiy merosining buyuk namunasi sifatida uning keyingi taraqqiyotiga katta hissa qoʻshdi. Doston dunyoning bir necha tillariga tarjima qilingan.

	- Arab xalifaligi 630-1258
VII-XII	Saxix xalifalar davri 632-661
	Ummaviylar sulolasi 661-750
asrlardagi	Abbosiylar sulolasi 750-1258
	- Tohiriylar davlati 821-873
asosiy siyosiy	- Safforiylar davlati 873-900
	- Somoniylar davlati 873-999
jarayonlar	- Qoraxoniylar davlati 999-XII asr o'rtalari
	- G'aznaviylar davlati 997-1187
	- Saljuqiylar davlati 1038-1157
	- Xorazmshohlar saltanati 1097-1221

АРАБ ХАЛИФАЛИГИ – Арабистон ярим ороли, Яқин ва Ўрта Шарқ, Шимолий Африка, Испания, Марказий Осиё ва Кавказнинг ўз ичига олган 632-1258 йилларда мавжуд бўлган давлат. Араб халифалигини 661-750 йилларда Уммавийлар, 750-1258 йилларда Аббосийлар сулоласи бошқарган.

Уммавийлар даврида халифаликка Ҳиндистондан то Испаниягача бўлган ҳудудлар бўйсундирилади. Ана шу улкан ҳудудларда ислом дини ва ягона араб тили ва ёзуви жорий этилади. Бу эса халқлар ўртасидаги савдо-иқтисодий алоқаларни ривожлантириш билан бирга улар ўртасидаги маданий яқинликни ҳам таъминлайди. Халифалиkning пойтахт шаҳарлари Дамашқ ва Боғдод илм-фан марказига айланади. Бу қатор илм масканлари ва расадхоналар барпо этилади. Маъмун ибн Хорун ар-Рашид замонида (813-833) Боғдодда «Байтул ҳикма» ташкил этилади.

VIII асрнинг охиридан Араб халифалиги парчалана бошлайди. Шимолий Африкада, ҳозирги Марокаш ҳудудида Идрисийлар (788-985), Тунис ҳудудларида Ағлабийлар (800-909), Хуросон ва Мовароуннаҳрда Тоҳирийлар (821-873), Саффорийлар (873-900) ва Сомонийлар (875-999) каби мустақил давлатлар ташкил топади. Араб халифалиги 1258 йилда мўғуллар томонидан тугатилади.



МОВАРОУННАХР (араб. «дарёнинг нариги томони») – ўрта асрларда ислом мамлакатларида кенг тарқалган тарихий-географик атама. Араблар Ўрта Осиёни босиб олгандан кейин Амударёдан шимолга қараб чўзилган ерларни Мовароуннаҳр деб атаганлар. Қадимда унинг худди шу маънони англатган форс тилидаги «Вароруд» ва «Варожайхун» шакллари ҳам мавжуд бўлган. XI асрда Европа тарихшунослигида Мовароуннаҳр атамаси латинчага ўтирилиб, «Трансоксиана» ёки «Трансоксания» шаклида муомалага киритилган.

Ҳозирги замон тарихий-географик илмий адабиётда Мовароуннаҳр деганда, асосан, Туркменистондан ташқари бўлган Ўрта Осиё ҳудудлари, яъни Ўзбекистон, Тожикистон, Қирғизистон ва Қозоғистоннинг жанубий

«БАЙТ УЛ-ҲИКМАТ» – Донишмандлар уйи. Араб халифаси Маъмун ибн Хорун ар-Рашид замонида (813-833) Бағдодда ташкил этилган ислом Шарқининг ўша даврдаги фанлар академияси. Маъмун академиясида буюк ватандошларимиздан ал-Хоразмий (786-850) ва Аҳмад ал-Фарғонийлар (797-865) фаолият юритганлар. Ал-Хоразмий ушбу академиянинг мудири бўлган.

ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ – 1004 йилда Хоразмнинг қадимий пойтахти Гурганжда Хоразмшоҳ Маъмун ибн Маъмун томонидан ташкил этилган академия. Бу академия («Маъмун академияси»)нинг асосини Абу Наср ибн Ироқ (X а.-1034), Абулҳайр ибн Ҳаммор (991-1048), Абу Саҳл Масиҳий (970-1011), Абу Райхон Беруний (973-1048), Абу Али ибн Сино ва бошқалар ташкил этган. 1017 йилда Маҳмуд Ғазнавий Хоразмни босиб олгач, «Маъмун академияси» ўз фаолиятини тўхтатган. Олимларнинг кўпчилиги Ғазна шаҳрига мажбуран олиб кетилган. Хоразмнинг қадимги пойтахти Гурганч, ҳозирда Қўҳна Урганч деб номланиб, у Туркменистоннинг Тошҳовуз вилоятида, бугунги Хива шаҳридан тахминан 100 км. масофада жойлашган. Маҳаллий халқ ҳозирда Қўҳна Урганч ва унга туташ ҳудудларни кўпроқ «360» деб атайдди. Ривоятларга қараганда бу ерда ўтмишда 360 та шайх, мутафаккир ва олиму-фузало ўтган экан. Мазкур 360 та аллома «Маъмун академияси» довуғининг халқ хотирасида ривоят шаклидаги кўринишидир.

1997 йил 11 ноябрда Ўзбекистон Президенти И.Каримовнинг «Хоразм Маъмун академиясини тиклаш тўғрисида»ги Фармони эълон қилиниб, мазкур фармонга биноан, бу академия ўз таркибида археология, тил ва адабиёт, биология бўлимлари ташкил қилинди ва аждодларимизнинг исми ва руҳига лойиқ иш олиб бориш каби хайрли ишларни бошлади. ЮНЕСКО ташкилоти Ўзбекистон Республикасининг таклифи билан 2005 йилда Маъмун академиясининг 1000 йиллигини ўтказиш тўғрисида қарор қабул қилди ва бу юртимизда тантанали равишда кенг нишонланди.

IX-XII asrlarda	- Islom dinining kirib kelishi
Markaziy Osiyoda	- Arab yozuvining keng yoyilishi
ilm-fan va madaniyatning yuksalishiga ta'sir ko'rsatgan shart-sharoitlar	- Ulkan hududlarning markazlashgan hokimiyat ostida birlashtirilishi (Arab xalifaligi) - Xalifalikdan mustaqil bo'lgan yangi sulola hukmdorlarining ilm-fan va madaniyatga homiyligi

- Siyosiy barqarorlik
- Buyuk ipak yo‘li
- Aholi moddiy va ma'naviy madaniyatining qadimiyligi

Biz o‘zimizning tariximizni va jahon sivilizatsiyasini rivojlantirishga bebaho hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarimiz - SHarqning mutafakkirlari Al-Buxoriy, At-Termiziy, Ahmad YAssaviy, Bahouddin Naqshband, Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Navoiy, Ulug‘bek va boshqalarni e‘zozlaymiz hamda ular bilan faxrlanamiz.⁸

I. A. Karimov

1.2.Orta Osieda kechgan ijtimoiy-siesiy jaraelarning madaniy yuksalishga korsatgan ta’siri.

Movarounnahr va Xuroson hududlarida IX-XII asrlarda yuz bergan musulmon uyg‘onish davri xususida XX asr xorij olimlaridan A. Mets, E. Bosvfort, S. Len-Pul, A.Tryunebaum, vatanimiz olimlaridan G. A. Pugachenkova, M. Ye. Masson, M. Xayrullayev, A. Irisov, U. Karimov, H. Hasanov, F. Sulaymanova va boshqalar tadqiqotlari alohida e'tiborga sazovordir. Mustaqillik yillarida mazkur davrda faoliyat ko‘rsatgan ko‘plab buyuk vatandoshlarimizning ilmiy meroslari chuqur o‘rganilishi boshlandi. Ularning tavallud yoshlari keng nishonlandi. «Ma'naviyat yulduzlari», «Buyuk allomalar, siymolar» va boshqa shu turdagi qator kitoblar chop etildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A.

⁸ Ислон Каримов. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. Асарлар, 2-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 1996 йил, 48-бет.

Karimov farmoni bilan XI asrda faoliyat ko'rsatgan Xorazm Ma'mun Akademiyasi faoliyati qayta tiklandi. Fanda «Uyg'onish davri» deb ataladigan davr G'arbiy va Markaziy Yevropa mamlakatlarda XIV-XVI asrlardagi rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini ifodalash uchun ishlatilgan. Birinchi marotaba «uyg'onish» atamasini XVI asr italyan rassomi va tarixchisi J. Vazari o'z asarlarida ishlatadi. «Uyg'onish», «uyg'onish davri» atamalari XIV-XVI asr ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish mohiyatini ochib bermasdan, ko'proq antik davr merosini, ya'ni antik madaniyatga o'xshash madaniyatni qaytadan «tirilishi», «uyg'onishi» ma'nosida ishlatila boshlandi. Keyinchalik fanda bu atama keng qo'llanila boshlandi. Shu ma'noda ko'pchilik tadqiqotchilar IX-XII asrlar O'rta Osiyo xalqlari tarixida madaniyatning rivojlanishini o'ziga xos xususiyatlarni ham «uyg'onish» davri deb atalishi yuqorida qayd qilinganidek, shartlidir deb hisoblaydilar.⁹

IX-XII asrlar O'rta Osiyo xalqlari tarixida moddiy va ma'naviy hayotning rivojlanishida oldingi davrlarga nisbatan keskin yuksalish davri bo'ldi. VIII asrda

Arab xalifaligi hozirda O'rta Osiyo deb atalmish hududni fath etib bo'lgan, bosib olingan yerlarda islom dini keng yoyilib, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy hayot Arab xalifaligi tartib-qoidalariga butunlay bo'ysundirilgan edi. Xalifalik tarkibiga kiritilgan o'lkalarda faqat islom dinigina emas, balki arab tili va uning imlosi ham joriy etildi. Chunki, arab tili xalifalikning davlat tili bo'lsa, islom dini uning mafkurasi edi. Shu sababli bu mamlakatlarda arab tilini o'zlashtirishga intilish kuchli bo'lgan. Islomni qabul qilgan aholining arab tili bilan muloqoti, ibodat vaqtlarida Qur'on suralarini tilovat qilishdan iborat bo'lgan bo'lsa, mahalliy zodagonlar arab tilini xalifalik ma'murlari bilan yaqinlashish va mamlakatda o'z siyosiy mavqelarini tiklab uni mustahkamlashning garovi deb hisoblaydilar. Arab tiliga bo'lgan bunday ehtiyoj va intilish tufayli ko'p vaqt o'tmay Movarounnahrda hatto o'z ona tilidan ko'ra arab tili va yozuvini o'zlashtirib olgan bilimdonlar paydo bo'ldi.

⁹ Sagdullayev A., Ergashev F. O'zbekiston tarixi fani bo'yicha o'quv qo'llanma. – T., Yangi asr avlodi, 2009. –B. 99.

Bu hol o'z navbatida arab tili va yozuvini Movarounnahrda keng yoyilishiga imkoniyat yaratib berdi. Ammo VIII asr oxiri IX asr boshlarida bo'ysundirilgan xalqlarni mutloq itoatda saqlab turish nafaqat xalifalik markazi ma'murlariga, balki o'lkalarga tayinlangan noib uchun ham tobora qiyinlasha bordi.

IX asrning oxirgi choragida Movarounnahr Somoniylar qo'l ostiga o'tib, mustaqillikni yanada mustahkamlab oladi. Somoniylar sulolasining eng yirik vakillaridan biri bo'lmish Ismoil Somoniy kuchli davlat tuzishga harakat qiladi va bu ishni muvaffaqiyatli ravishda uddasidan chiqadi. Somoniylar o'z davlatlarini o'zlarigacha bo'lgan sharq davlatlarining boshqaruv an'alarini chuqur o'rgangan holda, ularga suyanib, zamon talablarini hisobga olgan holda o'zgartirishlar kiritib boshqarishga harakat qildilar. Movarounnahr deb ataladigan hududda mustaqil davlatlarning tashkil topishi ularda siyosiy barqarorlik, iqtisodiy rivojlanish va madaniy hayotning ravnaqiga katta ta'sir ko'rsata boshladi. Buxoro, Samarqand, Urganch va Marv kabi shaharlar ilm-fan va madaniyat markazlari sifatida shakllanib, rivojlana boshladi.

O'rta Osiyoda IX-XIII asr boshlarida Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar va Xorazmshohlar davlatlari hukm surdilar. Bu davlatlar xalqaro maydonda o'z mavqei va tutgan o'rni jihatidan katta e'tibor va nufuzga ega bo'ldilar. Ahmad, Nasr, Ismoil Somoniy, Alptakin, Mahmud G'aznaviy, Tog'rulbek, Sulton Sanjar, Otsiz, Takash singari tadbirkor va uzoqni ko'ra oladigan davlat arboblari davrida O'rta Osiyoda hayotning barcha jabhalarida yuksalishlarga erishildi, davlat hokimiyati mustahkamlandi, nisbatan tinchlik, osoyishtalik va barqarorlik vujudga keldi.

Tarixchi Abu Mansur as-Saolobiyning Somoniylar Buxorosiga bergan ta'rifi butun O'rta Osiyo davlatlarining IX-XIII asrlardagi ahvoliga tegishlidir: «...shon-shuhrat makoni, saltanat ka'basi va zamonasining ilg'or kishilari jamlangan, yer yuzi adiblarining yulduzlari porlagan hamda o'z davrining fozillari yig'ilgan (joy) edi». O'rta Osiyo hukmdorlari ilm ahli bilan yaqinlashdilar, mamlakatni boshqarishda ularning bilimi va maslahatlaridan foydalandilar. Hukmdorlarning aksariyati bu

davrda o'z saroylarida olim, shoir va usta san'atkorlar, turli sohalar bo'yicha qimmatbaho kitoblarni to'plashga odatlandilar.

VIII asr oxiri – IX asr boshida xalifalikni larzaga keltirgan og'ir siyosiy vaziyat abbosiylarning Movarounnahr va Xurosonda olib borayotgan siyosatini o'zgartirishga majbur etdi. Birin-ketin O'rta Osiyoda tohiriylar, safforiylar, somoniylar davlatlari tashkil topdi. Mamlakatda sodir bo'lgan bunday siyosiy o'zgarishlardan so'ng Movarounnahr Xurosondan ajralib o'z mustaqqilligini to'la tiklab olish imkoniga ega bo'ldi. Movarounnahrni birlashtirib mustahkam davlat tuzgan davlat arbobi Ismoil Somoniy, 900 yilda Xurosonni ham safforiylardan tortib olib ulkan davlat barpo etdi. Xalifa somoniylar davlatini tan olishga va unga hukmronlik yorlig'ini yuborishga majbur bo'ldi. Shu tariqa IX asr oxirlariga kelib Movarounnahr xalqlari Arab xalifaligidan abadiy xalos bo'ladi va arab xalifaligidan mustaqil bo'lgan yirik feodal davlat – Somoniylar davlati tashkil topadi.

Arablar Xuroson, Movarounnahr va Xorazimni bosib olgach, hamma yerda bo'lgani kabi o'lkamida xam qattiqqo'llik bilan yurtni arablashtirish siyosati olib bordilar. Bu borada islom dini, Quonikarim ustalik bilan foydalanildi. O'lkada islom dini bilan birga qatorda arab tili davlat tili, islom dini tili va fan tili darajasiga ko'tarildi. Mahalliy tilda yozilgan asarlar yo'q qilindi, yerli bilimdonlar quvg'in ostiga olindi. Arab tilini, islom dini Quroni karimni yaxshi egallagan va bilgan shaxslarning jamiyatdagi o'rni nufuzi oshdi. Bu arab tilga va Xorazmda ham xatto o'z ona tiliga nisbatan arab tilini yaxshi bilgan tolibi ilmlar borgan sayin ko'payib bordilar. Arab tili va islom dini bo'yicha mukammal bilim va malakaga ega bo'lganlar arab xalifaligining markaziy shaharlariga borib o'qishni odat tusiga, an'anaga aylantirdi. Damashq, Qohira, Bag'dod, Kufa, Basra va boshqa shuning singari katta shaharlarda Movarounnahr va Xorazmdan borib fan, madaniyat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shgan avlod-ajdodlarimiz soni borgan sayin ko'payib bordi. Xususan, bu borada Bag'dod shahri Sharqning ilm-marifat markazi sifatida katta ahamiyat kasb etdi. IX asrda bu shaharda «Bayt-ul-xikma» («Donishmandlar uyi») – Sharqning fanlar akademiyasi tashkil etildi. Xuddi shunga monand X asr

oxirlarida Xorazmdan podsho Ma'mun ibn Ma'mun davri (995-997)da (Donishmandlar uni) tashkil etildi. Urganch tashkil etilgan bu «Bayt-ul-hikma» - "Ma'mun akademiyasi" (Xorazim akademiyasi) deb nomlanadi. Bag'dod va Urganchdagi «Donishmandlar uyi»da o'z vaqtida nomlari dunyoda mashhur ulug' alloma va mutafakkirlar tahsil ko'rganlar. Ular orasida Ahmad Farg'oniy, Al Xorazmiy, Beruniy, ibn Sino, ibn al-Xammor, Abu Saxl Masixiy, ibn Iroq kabi ulug' va buyuk zotlarning nomlari bor. Movoraunnahr va Xorazmda IX-XII asrlarda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotda yuz bergan ijobiy yutuqlar va mutaffakkirlar haqida gap ketgan, ana shu yutuq va mutaffakkirlarning asosiy omili va sababchisi bo'lgan markazlashgan mustaqil davlatning vujudga kelganligini nazar-etibordan qochirmasligimiz kerak, albatta.

O'z mavqei va tutgan o'rni jihatidan xalqaro maydonda katta e'tibor va nufuzga ega bo'lgan Markaziy Osiyodagi somoniylar, qorahoniylar, g'aznaviylar, Tug'rulbek, Sulton Sanjar Anushtegin, Otsiz, Takash singari tadbirkor va uzoqni ko'ra oladigan davlat arboblari davrida har tomonlama rivojlanib, madaniy tarqiyotda muvaffaqiyatlarga erishdilar.

Chunki bu hukumdorlar davrida mamlakat davlat mustahkamlandi, nisbatan tinchlik, osoishtalik va barqarorlik vujudga keldi. Natijada moddiy ishlab chiqarish rivoj topdi, hunarmandchilik va savdo taraqqiy etdi, madaniyat gurkirab o'sdi. Bu davrda «Buyuk ipak yo'li»ning o'rni va ahamiyati oshdi, hunarmandchilik va savdo-sotiq rivoj topgan obod va ko'rkam shaharlar vujudga keldi. Buni shundan ham bilish mumkin al-Muqaddasiyning yozishicha (985 yilda yozgan) 830-933 yillarda Xorazmda 13 shahar mavjud bo'lgan bo'lsa, yarim yildan so'ng shaharlar soni 33 taga yetgan. Bular: Kos, Gardmon, Oyxon, Orzaxiva, No'qfog', qardor, Mizdakxon, Jashira, Sadvor, Zardux, Borategin, Madmimiya (Jayxun daryosining o'ng sohilida) , Jurjoniya , Raxushmison, Madanisan, Xiva , Kardaran, Hazorasp, Jig'arband, Joz, Darg'on, Jit, Kichik Jurjoniya, ikkinchi Jit, Safdor, Nuzvor, zamaxshar, Ruzun, Vazirmand, Vaskaxankas Andarosgondir.

Muqaddasiyning so'zlariga qaraganda, Xorazm aholisi aql-zakovatli, fikr ilimni egallagan marifatli kishilar bo'lganlar. Xalifalik shaharlarida fiqh, adabiyot,

Quronni o'rganish sohasida shogirdi bo'lmagan xorazmlik imom (bu yerda yirik olim ma'nosida) kamdan-kam uchragan.

IX-XII asr ma'naviy hayotida islom dini muhim o'rin egallaydi. Bu davrda musulmon Sharqida keng tarqalib, jahon dini darajasigacha ko'tarilgan islom dini va shariat musulmon dunyosining mafkurasiga aylandi. Arab xalifaligining fotihlik siyosati natijasida o'zining barcha haq-huquqlaridan ajralib, madaniyati¹⁰ oyoq osti qilingan Movaraunnahr aholisi o'z e'tiqodi va xat savodidan mahrum bo'lib, islom dini qabul qilishga, shari'iy ahkomlarini bajarishga, shuningdek arab tili va yozuvini o'rganishga majbur bo'ldi¹¹. Ko'p vaqt o'tmay e'tiqodli xalq o'ziga yod bo'lgan arab imlosida xat-savod chiqarishga kirishdi. Movaraunnahr ahaolisining murakkab arab imlosini o'zlashtirib, xat-savodli bo'lishi uchun arabiy tilni mukammal o'rganib, bu o'zga tilda asarlar yarata oladigan olim va mutaffakkirlarning yerli xalq orasida yetishib chiqishi uchun qariyb bir yarim asr, ya'ni besh avlodning umri sarf bo'ldi.

Renessans, ya'ni Uyg'onish faqat Yevropa hodisasi emas. Dunyo madaniyatini yaxlit olib o'rgangan olimlarning ishlari shuni ko'rsatdiki, Osiyo markazida joylashgan Movarounnahr, Xuroson va Eronda Italiyaga qaraganda bir necha asr oldin (IX-XII) ulkan madaniy ko'tarilish yuz bergan, ilm-fan, falsafa, adabiyot kuchli rivojlanib, ilg'or insonparvarlik g'oyalari jamiyat fikrini band etgan, aqliy va ijodiy faollik gurkiragan.

Bu davr dunyo ilmida «Musulmon Renessansi» (A. Mets) yoki «Sharq Uyg'onishi» (N. I. Konrad) nomi bilan atalib kelinmoqda.¹²

Sharq Uyg'onish davrida Yevropa Uyg'onish davrining asosiy belgilari mujassam: jo'shqin ijodiy faoliyat, ulkan bunyodkorlik ishlarining amalga oshirilgani, aqlni hayratga soluvchi bemi'l asarlarning yaratilgani shundan dalolat beradi. Sharq Uyg'onish davri ham ulug' allomalar, qomusiy bilim sohiblari, mashhur mutafakkirlarni yetishtirdi. Aniq fanlar sohasida Muhammad Xorazmiy, Abu Bakr Roziy, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad al-Farg'oniy, Umar Hayyom, Mirzo

¹¹ Shamsutdinov R., Karimov Sh., Ubaydullayev O'. Vatan tarixi. 1-qism. – T., Sharq, 2010. – 422 b.

Ulug'bek jahonshumul kashfiyotlar qildilar. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Ibn Rushd, Muhammad G'azoliy, Nasafiy Aziziddinlarning falsafiy asarlari tafakkur xazinasini boyitdi, olam, odam va jamiyat yaxlitlikda tadqiq etilib, yangi qonuniyatlar ochildi, aqliy bilim ufqlari kengaydi, fozil jamiyat va komil inson nazariyasi chuqur ishlab chiqiddi. She'riyatda Abu Abdullo Rudakiy, Abulalo al-Maarriy, Abulqosim Firdavsiy, Jaloliddin, Rumiy, Hofiz Sheroziy, Nizomiy Ganjaviy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy kabi daho ijodkorlar yetishib, o'lmas asarlar yaratdilar, ishq muhabbat, qahramonlik, ozodlik va ezgulikni kuyladilar. Miniatyura rassomchiligida bir necha maktablar shakllandi, bunda Kamoliddin Behzod rasmlari yangi ijodiy yo'nalishga asos soldi.

Movaraunnahr va Xurosonda xalifalik hukmronligi tugatilib, mustaqil Somoniylar, Qoraxoniylar, Saljuqiylar, G'aznaviylar va Xorazmshohlar davlati qaror topgach, islom ta'limoti, shariat ahkomlari va ilmu ma'rifatga yanada e'tibor kuchaydi. Markaziy shaharlarda qator masjid va madrasalar qad ko'tardi. Manbaralardan ma'lum bo'lishicha, dastlabki madrasa Buxoroda X asrda shaxarning Kovushdo'zlar timi yaqinida bino qilingan. U Farjak madrasasi deb yuritilgan. XII asrda bu esa Buxoroning Darvoza mahallasida hatto qonunshunoslar uchun maxsus «Faqihlar madrasasi» qurilgan. Bungay oily dorilfunun asosan islom dini ta'limotining asosiy manbalari: Qur'oni Karim, Hadisi sharif va arab tilining mukammal o'rganishga katta e'tibor bergan. Shariat ahkomlari har tomonlama chuqur o'rgatishda «Tavsir»- Qur'oni Karimning sharhlari juda boy va qimmatli manba hisoblangan. Fiqh fani (islom huquqshunosligi) axloq va shariat ahkomlari borasida mukammal ma'lumot beradi.

Islom dini ta'limotining ravnaqi va targ'ibotining kengayishida, ayniqsa Buxoro shaxri markazga aylandi. Buxoro madrasalaridan juda ko'p yetuk fiqhshunos olimlar, odil qozilar, zohid imomlar yetishib chiqadi. Shu boisdan Buxoro IX asrdan boshlab «Qubbat ul-islom» —»Islom dinining gumbazi» nomi bilan shuhrat topadi.

Biroq hukmdor tabaqa mamlakatni idora qilishda imkoni boricha islom dinidan mafkuraviy qurol sifatida foydalaniladi. Mafkuraning barcha sohalari islomga tobe

qilinib, zardushtiylik e'tiqodi qoldiqlariga qarshi shavqatsiz kurash olib boriladi. Mehnatkash aholi ustidan zabr-zulm zo'rayib, har qanday hurfikrlilik ta'qib ostiga olinadi. Buning oqibatida zuhmatkash xalqning tashvish azobi ortib, hayoti g'oyat og'irlashdi.

Tarix shohidlik beradiki, eramizning I ming yilligini oxirlariga kelib O'rta Osiyo sharq tafakkuri olamining markaziy o'lkalaridan biri bo'lib qoldi. Buxoro, Samarqand, Marv, Urganch, Xo'jand kabi shaharlarda «Bayt ul-Xikmat» (Donishmandlar uyi) lar shakllanadi.

Bu davrdan boshlab O'rta Osiyolik ko'plab ilm daholari Yunon va Hind ilmiy merosini tarjima qildilar, ularga sharhlar yozdilar, ularni ilmiy nazariyalarini davom ettirdilar va yangidan-yangi fanlarga asos soldilar.

O'rta Osiyolik olimlardan: Muso Al-Xorazmiy, Muhammad al Farg'oniy, ibn Xamadan, Imom Buxoriy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Tusi, Abu Saxl Masixiy, Ulug'bek, Rumi, Ali Qushchi, Navoiy, Behzod, Bobur kabi olimu-allomalar O'rta Sharq olamini butun dunyoga tanitdilar. Ularning ilmu tafakkurlari bugungi kungacha matematika, fizika, astronomiya, geografiya, meditsina, geodeziya, tabiatshunoslik, tilshunoslik, san'at, memorchilik, kimyo, din, falsafa tarix va boshqa fanlar uchun nazariy manba va dasturi-amal bo'lib kelmoqda.

IX-X asrda O'rta Osiyoda aniq va tabiiy fanlar matematika, fizika, astronomiya, geografiya, meditsina, geodeziya, tabiatshunoslik, kimyo, minirologiya kabi fanlarni o'rganuvchi fanlar akademiyasi Xorazmda (Urganchda) Shox Ma'mun – II tomonidan tashkil etiladi. Akademiyaga Abu Rayhon Beruniy rahbarlik qiladi. U bilan birga Abu Ali ibn Sino, Abu Saxl Masixiy, Abulxasan Xammor kabi taniqli olimlar ijod qildilar.

XI-XII asrlarda Farg'oniy, Xorazmiy, ibn Sino, Kindiy, ibn Rushd kabi fan allomalarining ko'plab ilmiy asarlari lotin tiliga tarjima qilinadi.

Xorazm shohi Ma'mun akademiya faoliyatiga kattagina shart – sharoit yaratib beradi. Lekin, 1017 yili Xorazmni Mahmud G'aznaviy tomonidan bosib olishi va olimlarni majburan G'aznaga ko'chirilishi bilan Urganch fanlar akademiyasi

faoliyati to'xtaydi. Urganch fanlar akademiyasi faoliyati jahon fani ravnaqiga juda katta ilmiy meros qoldirdi. Ayniqsa, Beruniy va ibn Sinoning ilmiy merosi jahon fanlari xazinasiga salmoqli ulush bo'lib qoldi.

Insoniyat tarixining eng qadimgi madaniy o'choqlaridan biri hisoblanmish Turkiston tarixiy taraqqiyotning o'nqir-cho'nqirlariga qaramay doimo o'zining sernufusligi bilan ko'zga tashlanib kelgan. Va, tabiiy ravishda hayot shahar va vohalardan tashqarida – dashtu biyobonlarda ham qaynagan. Shuning uchun ham Turkiston xalqlari hayotida o'troq, yarim o'troq va ko'chmanchilik turmush tarzi yonma-yon, bir-biriga g'oyatda bog'liq ravishda mavjud bo'lib kelgan. Xorazm, Zarafshon, Farg'ona, Qashqadaryo, Surxondaryo voqa va vodiylarida yashagan xalqlar ming yillar davomida asosan o'troq hayot kechirib kelgan bo'lsalar, atrofdagi cho'lu biyobonlarda, tabiiy ravishda, ko'chmanchi, yarim ko'chmanchilar istiqomat qilgan. Shu bilan birga ko'chmanchi muhitdan ham vaqti kelib qudratli siyosiy sulolalar etishib chiqqani ham ma'lum. Bu, ayniqsa, qoraxoniylar sulolasi misolida ko'zga yaqqol tashlanadi.

VIII asrda arablar tomonidan bosib olingan O'rta Osiyo VIII-IX asrlarda ham turli amirliklarga va davlatlarga bo'lingan holda xiroj to'lab turardi. Ammo xalifalik zaiflashib mahalliy hukmdorlar Markaziy hokimiyat boshqaruvini asta-sekin o'z qo'llariga olmoqda edilar.

Bunga eng avval Toxiriylar, keyinroq Somoniylar erishdilar. IX asrga kelib Somoniylar butun Movarounnahrni, X-asrlarda butun O'rta Osiyoni egallab oldi.

IX-XI asrlarda Movarounnahr, ayniqsa, uning vodiysi va Xorazm o'sha davrning eng rivojlangan o'lkasiga aylandi. Buxoro, Termiz, Shosh, Farg'ona, Samarqand qishloq xo'jaligi va hunarmandchilikda, savdo-sotiqda mashhur bo'ldi.

Samarqand o'zining sifatli qog'ozi, Shosh o'zining ko'pchiligi bilan, Farg'ona o'zining mis, temir, qo'rg'oshin, kumush kabi yer osti boyliklari bilan mashhur bo'ldi.

Bu davrda Buyuk Ipak Yo'li orqali O'rta Osiyodan turli Mamlakatlarga chirm, mato, ipak, jun, kiyim-kechaklar va ot chiqarilar edi. Katta yer egalari mamlakatda hukmron sinf edilar. Feodallar tomonidan dehqonlar va hunarmardlar qattiq

ekspluatatsiya qilinar edi. Bunga qarshi xalq qo'zg'olonlari tobora kuchayib borardi.

X asr oxirida Qoraxoniylar davlati Sharqiy Turkistonda tashkil topadi. 999 yili ular Movarounnahrda hujum qilib, Buxoroni bosib oladi va Somoniylar sulolasi hokimiyatini tugatadi. Bu davrda G'aznada Mahmud G'aznaviy hukmronlik qilardi. 1001 yili Qoraxoniylar chegarasi Amudaryo bo'lib, qarshi qirg'ogi Mahmud G'aznaviy davlatida qoldi. Chetda qolgan Xorazmni Ma'mun boshqardi (999-1017 yillar). 1017 yili Xorazmni Mahmud G'aznaviy o'z tarkibiga qo'shib oladi. XI asrda Qoraxoniylar davlatini poytaxti O'zgandan Samarqandga ko'chadi. Umuman IX-XI asrlarda O'rta Osiyo o'z taraqqiyotining ancha kuchli bosqichida bo'ldi.

X asrning ikkinchi yarmi va XI asrning birinchi yarmi oraligida buyuk qoraxoniylar davlati nomi bilan tarixga kirgan davlat asos solgan qoraxoniylar taniqli, tilshunos olim Qozoqboy Maxmudovning fikricha, ular ham Alptakin.

singari o'g'uz qabilasining qiniq urug'iga mansub bo'lganlar.¹³ X asrda yashagan arab geografi Ibn Havqalning bergan ma'lumotlariga qaraganda, islom dinini qabul qilgan mingga yaqin turk oilasi Sharqdan Forob, Kenjit va Shosh o'rtasidagi tumanlarga, ya'ni hozirgi Chimkentning janubi-g'arbga ko'chib kelgan.

IX asrning oxiri va X asrning o'rtalarida Orol bo'yi va Kaspiy bo'yida O'g'uzlar ittifoqi shakllanadi. X asrda Sirdaryo etaklarida o'g'uzlar davlati tashkil topadi. Tashkil topgan davlatning poytaxti Yangikent deb ataladi.

XI asrning o'rtalarida bu davlat Sharqdan kelgan qipchoqlar tomonidan tor-mor qilinadi. O'g'uz qabilalarining bir qismi g'arbga, rus dashtlariga joylashgan. Boshqa qismi esa qoraxoniylar boshchiligida old Osiyo mamlakatlarini istilo qiladilar va hozirgi Turkmaniston yerlariga o'tadilar. Yozma ma'lumotlarga qaraganda, o'g'uzlarning islom dinini qabul qilib, yerli xalq bilan aralashib ketgan kismi turkmanlar deb atalgan. Mahmud Qoshg'ariy (XI asr), Rashididdin (XIII – XIV asr), Abulg'ozir (XVII asr) larning xabar berishicha uguzlar 22 yoki 24

¹³ Махмудов К. Туркий қавмлар тақдири // Фан ва турмуш. – Тошкент, 1990, – № 12. – Б.20.

qabiladan iborat bulgan. Bular: Chovdir, chandir, Emreli igdir, yazir, salir, qoradoshli, baet, koyi, tuturga va boshqalardir.

Xullas, iqtisodiy-siyosiy raqobat natijasida Saljuq o'z tarafdorlari bilan yuqorida tilga olingan Sirdaryoning o'rta oqimlarini tark etib, daryoning quyi oqimi chap qirg'og'ida joylashgan Jand viloyati yaqiniga kelib o'rnashadi¹⁴. Bu voqea taxminan X asrning o'rtalarida sodir bo'lgan. Shu orada ular islom dinini qabul qiladilar. Ular xuddi shu asrda Movarounnahrni idora qilayotgan somoniylar, aniqrog'i so'nggi somoniylarni harbiy jihatdan qo'llab-quvvatlaganlar. Qoraxoniylarning Movarounnahr siyosiy hayotiga faol aralashuvi ayniqsa somoniylarning qoraxoniylar bilan raqobati yillari kuchaydi. Bu esa saljukiylar qaramog'idagi o'g'iz qavmlarining Samarqand, Buxoro, Kesh viloyatlariga borib o'rnashishlari uchun sharoit yaratdi. Ular o'z turmush tarzlariga ko'ra yaylovlar, dashtliklarda o'rnashganliklari tabiiy. Shahar va vohalarda esa, avvalgidek, o'troq turkiy aholi istiqomat qilavergan.

Qoraxoniylar davlati boshqa turk hoqonliklari qatori Islom tarixining hal qiluvchi pallasida tashkil topdi. Salibchilar Yaqin Sharqqa qarab yurish boshlashidan oldingi murakkab vaziyatda yaqindagina Islomni qabul qilgan turklar tashabbusni qo'lga olishga muvaffaq bo'lishdi. Ovrupo davlatlari bosqiniga qarshi tura olgan birdan-bir kuch ham aslida turklar edi. Ilk janglarda erishgan zafarlariga qaramay, salibchilar musulmon dunyosi bilan to'qnashuvni o'z foydalariga hal qilishga erisha olishmadi va bunda asosan Qoraxoniylar hamda ularning voliylari xizmati katta bo'ldi.

¹⁴ Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи. — Тошкент.: Шарқ, 2000. — Б. 124.

II-BOB. Buyuk ajdodlarimizning jahon ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan xissalari.

2.1.O`rta Osiyoda islom madaniyatini yuksalishiga katta xissa qo'shgan buyuk hadisshunos va fihqshunos allomalar va islom madaniyatining gullab-yashnashi.

O'tmishimizni ziyraklik bilan kuzatayotgan Prezidentimiz Islom Karimov: "Markaziy Osiyo tarixida siyosiy aql-idrok bilan ma'naviy jasoratni, diniy dunyoqarash bilan qomusiy bilimdonlikni o'zida mujassam etgan buyuk arboblarga ko'p bo'lgan"¹⁵, deb ta'kidlaydilar. Ularning jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo'shgan hissalarini o'sha paytlardan buyon butun dunyo tan olmoqda

IX-XII asrlarda Markaziy Osiyo hududida dunyoviy fan va madaniyat bilan bir qatorda islom madaniyati ham rivojlandi va taraqqiy etdi. Ayniqsa, Movarounnahrda samoniylar davlatini qaror topishi va uning ravnaqida islom ruhoniylarining hissasi katta bo'ldi. SHu boisdan ularning obro'si oshib, Buxoro sharqda islom dinining eng nufuzli markazlaridan biriga aylandi. Mamlakat ma'naviy hayotining tayanchi bo'lgan islom mafkurasiga bu davrda "ustod" - din va ilm peshvolari rahnamolik qilardilar. Keyinchalik din peshvolari va islom ulamolarining rahnamosi "shayx ul-islom" deb yanada ulug'landi. SHayx ul-islomdan keyin xatiblar turardi. Islom mafkurasi somoniylar, qoraxoniylar, g'aznaviylar, saljuqiylar va xorazmshohlar hukmdorlarining tashqi va ichki siyosatlarida bosh yo'naltiruvchi g'oyaviy kuch bo'lib xizmat qildi. Asta-sekin jamiyat a'zolari o'rtasida ham islom diniga, Qur'oni karimga ehtiyoj kuchaydi. Natijada o'lkamizda Qur'oni karimni sharhlovchi va tafsirini bayon qiluvchi asarlar yozgan ulug' islomshunos allomalar etishib chiqdi. Imom Abu Mansur Moturidiy, imom Abu Lays ibn Muhammad Samarqandiy, imom Zamahshariy, imom Nasafiylar ana shular jumlasidandir.

Islom madaniyatining Qur'oni karimdan keyin ikkinchi o'rinda turadigan nodir manbaalardan biri hadislar, ya'ni Muhammad alayhissalomning diniy va axloqiy ko'rsatmalari, hikmatli so'zlarining majmuyidir.

Hadischilikning rivojlanishida IX asr oltin davr hisoblanadi. Buning sababi butun islom dunyosida eng nufuzli deb tan olingan oltita ishonchli hadislar to'plamining mualliflari shu asrda yashaganlar. Yana shu narsa diqqatga sazovorki, mazkur olti Muxadisning deyarli hammasi Markaziy Osiyo tuprog'ida etishib chiqqanlar.

Hadis ilmining paydo bo'lishi. Islom dini ta'limotida "Qur'oni karim"dan keyin asosiy manba hadislardir. Hadis ilmi bilan shug'ullanish asosan VIII asrning ikkinchi yarmidan boshlanib, unga eng bilimdon, mo'tabar shaxslargina tartib bergan. Ma'lumotlarga qaraganda, VIII-XI asrlarda to'rt yuzdan ortiq muhaddis hadis ilmi bilan shug'ullangan. Biz bu manbalarning ko'pi bilan tanish emasmiz. Keyingi yillarda Muhammad alayhissalomning hayoti va faoliyati hamda uning diniy- axloqiy ko'rsatmalarini o'z ichiga olgan hadislar, Imom Ismoil al-Buxoriyning "Al- Jome' as-sahiq", "Al-adab al- mufrad" asarlari tarjima qilinib nashr etildi. At-Termiziyning "Ash-Shamoili an-Nabaviya" asari hamda ularga yozilgan so'zboshilar, ba'zi kichik risola va maqolalar chop etildi. Biz ana shu manbalarga tayangan holda fikrlarimizni bayon etamiz. "Hadis" yoki "sunna" so'zlari bir ma'noni anglatib, Rasulullohning hayoti va faoliyati hamda diniy va axloqiy ko'rsatmalari haqidagi rivoyatlardan iborat. Muhammad alayhissalomning ibratli ishlari, e'tiqod, poklik va insonga xos ma'naviy- axloqiy xislatlarni ifodalovchi so'zlari pand-nasihatlarini uning nomi bilan bog'liq hadislarda mujassamlangan. Hadislar dastlab yozib borilmagan. Chunki payg'ambarimiz Qur'oni Karim nozil bo'lgan vaqtlarda arab bo'lmagan kishilarning hadislarini Qur'on oyatlaridan deb o'ylashlaridan cho'chib, uni yozib borishlariga ruxsat etmaganlar. Lekin payg'ambarimiz Muhammad sallallohu alayhivasallam huzurida sahobalar bo'lib, ular Rasuli akramdan eshitgan hadislarini yodlab borganlar. Masalan, Hazrati Abu Xurayra shunday mo'tabar kishilardan bo'lib, butun imrini

hadislarni yodlashga baxsh etgan. Mazkur hadislar to'g'ri, ishonarli (sahih) bo'lgan. Lekin, hadislarni yod olgan kishilar tobora kamaya borgani hamda asta-sekin ular unutilib ketishining oldi olinib, xalifalar ishonarli hadislarni to'plashga farmon berdilar. Islomshunos olimlar bu ishni boshida turgan dastlabki xalifa Umar ibn Abdulaziz ekanligini ta'kidlaydilar. Hadislarni birinchi marta yozish bilan mashg'ul bo'lgan muhaddislar Rabee bin Sabeh, Said bin Abi Aruba, Molik bin Anas, Abdumalik bin Jurayj Makkiy, Abdurahmon al- Avzoiy Shoshiy, Sufyon Savriy Kufiy va boshqalar deb ko'rsatiladi. VIII-IX asrlar hadis ilmi uchun “oltin davr” xisoblanadi. Bu davrga kelib, islom ulamolari tomonidan hadislarning qay darajada to'g'riligi, qanday manbalarga tayanganligi tadqiq etila boshlanadi. Chunki, ba'zi soxta, ishonchsiz hadislar ham paydo bo'la boshlagan, ularni tekshirib, asl hadislarni tiklash va yozma ravishda qayd qilish zamon talabi bo'lib qolgan edi. Shuning uchun ham birinchidan, hadislarni yoddan biluvchi haqiqiy bilimdon, o'tkir muhofazali kishilarning asta-sekin kamayib ketayotganligi, ikkinchidan, hadislarining haqiqiy, ishonarli, ya'ni sahihlarini saqlab qolish maqsadida hadislar tekshirilib, asl holiga qaytarilib, yozib yig'ila boshlangan. Ana shu tarzda hadis ilmi rivojlana boshlagan. Islom dunyosida eng nufuzli manbalar deb sanalgan oltita ishonchli to'plam (as-sahih as- sitta)ni yaratgan muhaddislar ham vatandoshlarimiz bo'lib, hadis ilmi rivojlangan IX asrda yashab ijod etganlar. Bular Abud Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy 194 (810) - 256 (870), Imom Muslim ibn al-Xajjoj 206 (819) - 261 (874), Imom Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy 209 (824) - 279 (892), Imom Abu Dovud Sulaymon Sijistoniyy 202 (817) - 275 (880), Imom Ahmad an- Nasoiy 215 (830) - 303 (915), Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Yazid ibn Mojja 209 (824) - 273 (886) kabi allomalardir. Olimlar “al-kutub as-sitta” (olti kitob)ni quyidagilardan iborat deb ko'rsatadilar. 1. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy tomonidan yozilgan “As- Sahih”. 2. Imom Muslim an-Nishopuriy (Imom Muslim ibn al-Hajjoj) tomonidan yozilgan “As-Sahih”. 3. Imom Ibn Mojja tomonidan yozilgan “Sunnan”. 4. Imom Abu Dovud Sulaymon-Sijistoniyy tomonidan yozilgan “Sunnat”. 5. Imom ibn Iso at-Termiziy tomonidan yozilgan “Aj-jami al-kabir”. 6. Ahmad an-Nasoiy tomonidan yozilgan

“Sunnan” kabi to'plamlardir. Xadis ta'lif etishda asosan, uch yo'nalish paydo bo'lgan 1. “Musnad” yo'nalishi. Bunda turli mavzudagi hadislar, bir joyda keltirilib, alifbo tartibida joylashtirilgan. Abdulloh ibn Muso, Imom Ahmad ibn Hanbal hadislarini ana shu yo'nalishda to'plaganlar. 2. “Sahih” (ishonchli) yo'nalishi. Bunga Imom Buxoriy asos solganlar. Bularga to'g'ri, ishonarli hadislar kiritilgan. 3. “Sunnan” yo'nalishidagi hadislar. Mazkur yo'nalishdagi hadislar to'g'ri, ishonarli hadislar bilan bir qatorda, “zaif” hadislar ham kiritilgan. Abu Dovud, Iso at-Termiziy, an-Nasosiy, ibn Mojjalar shunday yo'nalishdagi hadislarini to'plagan muhaddislar. Movarounnahrda birinchi bo'lib hadis to'plagan muhaddis Imom Abdulloh ibn Muborak al-Marvaziy sanaladi. Yana vatandoshlaarimizdan Imom Ahmad ibn Hanbal al-Marvaziy, Ishoq ibn Rahovayh al-Marvaziy, Imom al-Haysam ibn qulayb ash-Shoshiy, Hofiz al-Xorazmiy, Imom Abdulhasan Ahmad ibn Muhammad as-Samarqandiy va boshqalardir. Hadis ilmining rivojida oltin davr hisoblangan IX asrda hadisshunoslikda katta muvaffaqiyatlar qo'lga kiritilgan. Chunonchi, butun islom dunyosidagi eng nufuzli manbalar deb tan olingan oltita ishonchli hadislar to'plamining (as-sihoh as-sitta) mualliflari yashab ijod qilganlar.

Ular orasida “Hadis ilmida amir al-mo'minin” degan sharaflı nomga sazovor bo'lgan Imom Buxoriy alohida e'tiborga molik buyuk olimdir. Uning to'liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn Mug'iyra ibn Bardazbeh Ju'fiy Buxoriy bo'lib, u 810 yil 20 iyulda Buxoro shahrida tavallud topgan. Buxoriy yoshligidayoq otasi vafot etib, onasi tarbiyasida o'sgan. U yoshligidan aql-idrokli, o'tkir zehnli va ma'rifatga havasi kuchli bo'lib, turli ilm-fanlarni, ayniqsa, hadis ilmini zo'r qiziqish bilan egallaydi. Manbalarda ko'rsatilishicha, u o'n yoshidan boshlab o'z yurtidagi turli rivoyatchilardan eshitgan hadislarini, shuningdek, Abdulloh ibn Muborak va Vakiy ibn Jaroh kabi olimlarning hadis to'plamlarini mutolaa qilib, yodlagan, ustozı Shayx Doxiliy bilan hadis rivoyatchilari haqidagi qizg'in bahslarda qatnashgan.

825 yilda Buxoriy onasi va akasi Ahmad bilan Hijozga qarab yo'l tutadi, muqaddas shaharlar Makka va Madinani ziyorat qilib, olti yil Hijozda yashdi.

Hadis ilmidan o'z bilimini yanada oshirish maqsadida o'sha paytda ilm-fanning yirik markazlaridan hisoblangan Damashq, Qohira, Basra, Kufa va Bag'dod kabi shaharlarda yashab, u joylardagi mashhur olimlardan hadis bilan bir qatorda fiqh ilmidan ham ta'lim oladi, yirik olimlar davrasida ilmiy bahslaru munozaralarda qatnashadi va ilm toliblariga dars ham beradi. Imom Buxoriy hayotining ko'p qismi xorijiy ellarda, musofirchilikda o'tadi. Bu haqda uning o'zi: "Misr, Iroq, Shomga ikki martadan, Basraga to'rt marta borganman. Hijozda olti yil yashaganman, Bag'dod va Kufa shaharlariga necha marta borganim hisobini bilmayman", degan ekan. U safar chog'ida ham, bir shaharda muqim turganda ham ilmini oshirish borasida tinimsiz ishlar, to'plagan hadislarini oqqa ko'chirar edi. Muallifning yozishicha, Bag'dodda istiqomat qilgan paytda ko'pincha oyning nurida ijod qilib, qorong'i kechalarda sham yorug'ida kitob yozar ekan. Ilm oshirish maqsadida Buxoriy juda ko'plab olimlardan ta'lim oladi. Nishopurlik al-Hakimning (1015 yilda vafot etgan) yozishicha, Imom Buxoriy ta'lim olgan ustozlari soni to'qsondan ortadi. O'z navbatida Buxoriy ham ko'pgina shogirdlariga ustozlik qilgan. Termizlik mashhur muhaddis Abu Iso Termiziy Buxoriyga ham shogird, ham safdosh hisoblanib, ularning o'zaro munosabatlari ibratli bo'lgan. Termiziyning yozishicha, u o'z asarlari uchun ko'p ma'lumotlarni Buxoriy bilan uchrashuvlaridan olgan. Shu bilan birga, Buxoriy ham Termiziyning bilimini yuqori baholab: "Men sendan ko'rgan foyda sen mendan ko'rgan foydadan ortiqroq", deb unga nisbatan chuqur hurmatini bildirgan. Termiziy o'z ustozini va safdoshi Buxoriyni butun umri davomida hurmatlab, unga samimiy sadoqatda bo'lgan.

Imom Buxoriy nafaqat yirik olim, balki o'zining go'zal xulq-atvori, odamoxunligi, muruvvatligi, himmatligi va beqiyos saxovatligi bilan boshqalardan tamomila ajralib turgan. U zehni o'tkirligi va yodlash qobiliyatining kuchliligi bilan ham xalq orasida g'oyat shuhrat qozongan. Manbalarda Buxoriyning 600 mingga yaqin hadisni yod bilgani qayd qilingan. Imom Buxoriy xorijdan qaytgach, o'z vatani Buxoroda ko'plab shogirdlar va ulamolarga hadis ilmidan saboq berish bilan mashg'ul bo'ladi. Hasadgo'ylarning xatti-harakati

tufayli Buxoro amiri Xolid ibn Ahmad Zuhaliy Buxoriyga shaharni tark etishni buyuradi. Shundan keyin Buxoriy Samarqandga qarab yo‘l oladi va birmuncha muddat Xartang qishlog‘ida o‘z shogirdlari va qarindosh-urug‘larinikida yashagandan keyin og‘ir kasalga chalinib, 870 yil 1 sentyabrda 60 yoshida vafot etadi va shu yerda dafn qilinadi.

Imom Buxoriy avlodlarga boy va qimmatli ilmiy meros qoldirgan bo‘lib, u yozgan asarlarning soni yigirmadan ortiqdir. Ulardan “Al-jome’ as-sahih”, “Al-adab al-mufrad”, “At-ta’rix as-sag‘iyr”, “At-ta’rix al-avsot”, “At-ta’rix al-kabir”, “Kitob al-ilal”, “Birr ul-volidayn”, “Asomi us-sahoba”, “Kitob al-kuna” va boshqalarni ko‘rsatish mumkin. Buyuk allomaning eng muhim asari, shubhasiz, “Al-jome’ as-sahih”dir. Bu asar “Sahih Buxoriy” nomi bilan ham mashhur. Uning g‘oyat ahamiyatli tomoni shundaki, Imom Buxoriygacha o‘tgan muhaddislar o‘z to‘plamlariga eshitgan barcha hadislarini tanlab o‘tirmay qatorasiga kiritaverganlar. Imom Buxoriy esa turli roviylardan eshitgan hadislarini tabaqalarga bo‘lib, ularning ishonchlilarini ajratib, alohida kitob yaratdi. Buxoriyning bu asariga kiritilgan ishonchli hadislarining soni 7275 tadir. Bu sharaflı ishni birinchi Buxoriy boshlab bergan bo‘lib, keyin qator olimlar unga taqlid qilib, shu zaylda hadislar to‘plamini yaratganlar.

Imom Buxoriyning ushbu yirik asari davrdan boshlab toki shu vaqtgacha u islom ta’limotida Qur’ondan keyingi ikkinchi o‘rinda turadigan muhim manba sifatida yuqori baholanib kelinmoqda. Imom Buxoriyning ushbu asarining ko‘plab nusxalari turli shaharlarda tarqalgan. Hatto o‘rta asrlarda yashagan ba’zi adib va xattotlar uchun bu asar nusxalarini ko‘chirish tirikchilik manbai ham bo‘lgan. 1325 yilda ko‘chirilgan sakkiz jilddan iborat go‘zal bir nusxasi hozir Istanbulda saqlanmoqda. “Al-jome’ as-sahih”ga ko‘pdan-ko‘p sharhlar bitilgan bo‘lib, muhim manba sifatida u qayta-qayta nashr ham qilingan.

Imom Buxoriy to‘plamlariga kiritilgan hadislar faqat islom ta’limotiga oid umumiy qoidalarni aks ettirish bilan cheklanib qolmaydi. Ular mehr-muhabbat, saxiylik,

ochiq ko'ngillik, ota-ona, ayollar va kattalarga hurmat, yetim-yesirlarga muruvvat, faqir bechoralarga himmat, vatanga muhabbat, mehnatsevarlik va halollikka da'vat etish kabi haqiqiy insoniy fazilatlar va namunali tartibotlar majmuasidir. Unda nima yaxshi, nima yomon, nimani qilish kerak, nimadan o'zni tiyish lozimligi haqida hozirgi jamiyatimiz ahli, ayniqsa, yosh avlod uchun katta tarbiyaviy ahamiyatga ega yo'l-yo'riqlar, pand-nasihat va o'gitlar aks ettirilgan. 1998 yilda buyuk hadisshunos tavallud kuni keng jamoatchilik tomonidan katta hurmat va ehtirom ila nishonlanib, Imom Buxoriy ziyoratgohi ulkan majmuaga aylantirildi. Alloma maqbarasi go'zal suratda qayta bino qilindi. Majmua tarkibiga kiruvchi masjid ta'mirlandi. Ziyoratgoh hududi so'lim go'shaga aylantirildi. 2008 yilda Imom Buxoriy majmuasi Xalqaro Markazga aylantirildi. Bugun ushbu ma'rifiy markazda Imom Buxoriy merosini o'rganish va jamoatchilikka taqdim etish yo'lida ulkan ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Abu Iso at – Termiziy.

Uning to'liq ismi Muhammad ibn Iso ibn Savra ibn Muso ibn az-Zahhoq Abu Iso as-Sullamiy az-Zariyr al-Bug'iy at-Termiziy bo'lib, hijriy 209 (melodiy 824) yili Termiz yaqinidagi Bug' (hozirgi Surxondaryo viloyatining Sherobod tumani hududida joylashgan) qishlog'ida o'rta hol bir oilada tavallud topgan[1]. Markaziy Osiyolik mashhur tarixchi Abu Saad Abdulkarim as-Sam'oni (1113-1167) at-Termiziy Bug' qishlog'ida vafot etganligi uchun al-Bug'iy taxallusi bilan ham atalganini, olimning ko'p yig'laganidan umrining oxirlarida ko'zi ojiz bo'lib qolganligidan az-Zariyr (ko'zi ojiz) taxallusini olganligini ham qayd qiladi.

Lekin el orasida at-Termiziy nomi bilan mashhur bo'lishiga sabab uning butun hayoti va faoliyati (yoshligidan boshlab) Termiz shahri bilan chambarchas bog'liq bo'lganligidan, shuningdek, olim tug'ilgan Bug' qishlog'i Termiz shahriga yaqin bo'lib, ma'muriy-idoraviy jihatdan unga mansub qishloqlardan ekanligidan deb izohlash mumkin.

At-Termiziyning oilasi va ota-onasi haqida manbalarda aniq ma'lumotlar keltirilmagan. Tarixchilar uning «Bobom asli marvlik edi, u kishi Lays ibn Sayyor zamonida yashagan, so'ng u yerdan Termizga ko'chib kelgan», - degan fikrini keltirish bilan chegaralanadilar. Shuningdek, at-Termiziyning ko'zi ojizligi xususida ham yozma manbalarda turli-tuman ma'lumotlar keltirilgan. Ba'zi mualliflar uni tug'ma ko'zi ojiz bo'lgan desa, ko'pchilik mualliflar olimning keyinchalik, umrining oxirlarida ko'zi ojiz bo'lib qolganligini yozadilar.

At-Termiziy yoshligidan o'ta tirishqoq, idrokli va zakovatli bo'lganligi bois o'z tengdoshlari ichida ajralib turgan. Ilmga o'ta qiziqishi tufayli o'sha davrning ko'pgina ilmlarini, ayniqsa, hadis ilmini chuqur egallagan. Termiz, Samarqand, Marv va Markaziy Osiyoning boshqa yirik shaharlarida istiqomat qilgan mashhur ulamo va muhaddislar asarlarini qunt bilan o'rgangan, qo'shni Balx va Hayraton shaharlaridagi ilm ahllari bilan ilmiy aloqalar o'rnatilishiga munosib hissa qo'shgan olimlardan biridir. Yoshligidan ilm-fanga tashna at-Termiziy 850 yildan, ya'ni yigirma olti yoshidan boshlab uzoq yurtlarga, qator xorijiy mamlakatlar va shaharlarga safar qiladi. Jumladan, u Hijozda - Makka va Madina, Iroq, Xurosonning qator shaharlarida ko'plab muhaddis, ulamolar bilan muloqotda bo'lib, ulardan ta'lim oladi, qizg'in ilmiy munozara va bahslarda ishtirok etadi. Tarixchi Shamsuddin az-Zahabiyning ta'kidlashicha, at-Termiziy Misr va Shomni shaxsan ziyorat qilmagan, shu boisdan ham bu mamlakatlar ulamolaridan bilvosita hadislar rivoyat qilgan. Uzoq yillar davom etgan safarlari chog'ida at-Termiziy nafaqat hadis ilmidan, balki ilm al-qiroat, al-bayon, fiqh, tarix kabi fanning boshqa sohalari hamda ko'plab ustozlardan saboq oladi.

Shu bilan bir qatorda at-Termiziy payg'ambar alayhissalom hadislarini to'plashga alohida e'tibor bilan qaraydi. Bu borada u har qanday qiyinchiliklarga bardosh beradi. U o'zi o'qigan yoki biror roviydan eshitgan hadisini alohida qog'ozlarga qayd etib borar, ularning asli va isnodini izchillik bilan aniqlab to'g'riligiga to'liq ishonch hosil qilsagina maxsus qog'ozlarga qayd etardi. Hadislarning to'g'riligiga shubha bo'lganda ularni alohida ajratib yozardi. Shu tariqa hadislar

sahiyh (to'g'ri, ishonchli), hasan (yaxshi, ma'qul), zaiyf (bo'sh, ishonchsiz), g'ariyb (g'alati) kabi xillarga ajratilgan.

Hadis ilmini egallashda va takomillashtirishda imom at-Termiziy o'z davrining mashhur muhaddislaridan tahsil oldi. Uning ustozlaridan Imom al-Buxoriy, Imom Muslim ibn al-Hajjoj, Abu Dovud, Qutayba ibn Sa'id, Ishoq ibn Muso, Mahmud ibn G'iyon, Said ibn Abdurrahmon, Muhammad ibn Bashshor, Ali ibn Hajar al-Marvaziy, Ahmad ibn Muniy', Muhammad ibn al-Musanno, Sufyon ibn Vaqiy' va qator taniqli muhaddislarni ko'rsatish mumkin.

Imom at-Termiziy o'z davrining yetuk muhaddisi sifatida ko'pgina shogirdlarga ustozlik ham qilgan. Uning shogirdlaridan Maqbul ibn al-Fazl, Muhammad ibn Mahmud Anbar, Abu ibn Muhammad an-Nasafyun, Hammod ibn Shokir, Xaysam ibn Kulayb ash-Shoshiy, Ahmad ibn Yusuf an-Nasafiy, Abul-Abbos Muhammad ibn Mahbub al-Mahbubiy kabi yetuk olimlarni ko'rsatish mumkin. Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, at-Termiziyning ustoz va shogirdlari orasida turli mamlakat va elat vakillari borligi sezilib turibdi. Shu nuqtai-nazardan qaralganda, uzoq o'tmishda ham ilm-fanning taraqqiyoti va ma'rifat urug'larini tarqatish borasida turli o'lkalarning vakillari yakdil bo'lib faoliyat ko'rsatib samarali hamkorlik qilganliklari, umumbashariy qadriyatlar ravnaqi yo'lida haqiqiy baynalmilallik ruhi mavjud bo'lganligi hozirgi davrimiz uchun ham ibratli bir holdir.

At-Termiziy zehnining o'tkirligi hamda quvvai-hofizasi kuchliligi xususida tarixiy manbalarda ko'plab misollar, rivoyatlar keltiriladi. Jumladan, arab tarixchisi Shamsuddin az-Zahabiyning (1274-1347) «Tazkirat ul-huffoz» («Hofizlar haqida tazkira») nomli asarida quyidagi hikoya keltiriladi: Abu Iso Muhammad at-Termiziy Makkaga hajga borayotganida yo'lida mashhur muhaddislar bilan muloqotda bo'ladi va ularning biridan hadislardan saboq berishini iltimos qiladi. U olim: «Bo'lmasa qog'oz-qalam ol», degan. Aksiga olib shu payt at-Termiziy qalam topa olmagan va olim ro'parasida o'tirib eshitgan hadislarini yozib olayotgandek qog'oz ustida qo'lini harakat qildiravergan. Olim esa turli-tuman hadislardan yetmishga yaqinini hikoya qilgan. Shu orada olim

qog'ozga qarab unda hech qanday yozuv yo'qligini ko'rgan va at-Termiziyning bu ishidan jahli chiqqan. At-Termiziy shunda bamaylixotir «Siz aytgan hadislaringizni yoddan aytib beraymi?», - deganu hozirgina olimdan eshitgan hadislarning hammasini birin-ketin takror aytib bergan. At-Termiziyning xotirasi kuchliligidan o'sha olim hayratga tushib qoyil qolganligini bildirgan.

Bu xususda yana bir hikoya at-Termiziyning so'ziga asoslanib keltiriladi: Makkaga ketayotganimda bir shayx to'plagan hadislardan ikki qismini yozib olgan edim. Tasodifan o'sha shayx bilan uchrashib qoldim. Yozib olingan hadislar mazmunan ularga o'xshash-u, biroq boshqa hadislar ekan. Salom-alikdan so'ng hadislarni aynan uning o'z og'zidan eshitishni iltimos qildim. U rozi bo'lib, hadislarni hikoya qila boshladi. Keyin menga qarab qo'limdagi oq qog'ozni toza, ya'ni hech narsa yozilmagan holda ko'rgach: «Bu qilig'ing uchun mendan uyalmaysanmi?», - dedi. Men ma'zurona holda bor haqiqatni aytib: «Siz hikoyat qilgan hadislarning hammasini yoddan bilaman», dedim va uni birin-ketin so'zmaso'z aytib berdim. Shayx esa so'zlarimga ishonqiramasdan «Nima, mening huzurimga kelishdan oldin ularni maxsus yodlagan edingmi?», - dedi. «Yo'q», deb javob qilib: «Agar so'zlarimga ishonmasangiz, boshqa hadislardan ayting», dedim. Shunda u o'zining g'aroyib hadislaridan qirqtasini hikoya qildi. Men unga ularni ham boshdan oxir birma-bir aytib berdim. Shunda u: «Senga o'xshaganini hech qachon ko'rmagan edim», - dedi.

At-Termiziy ko'plab xorijiy mamlakatlarga qilgan safar chog'ida hadislarni to'plab, kitoblar ta'lif qilishga ham kirishgan. Safardan qaytgach, olimu fuzalolar bilan ilmiy munozaralarda qatnashadi, ko'plab shogirdlarga ustozlik qiladi. Ayniqsa, mashhur muhaddis alloma al-Buxoriy bilan ko'plab ilmiy bahslar yuritib undan istifoda qiladiki, bu haqda at-Termiziy o'zining «Al-Ilal» kitobida ham yozadi. At-Termiziyning ko'pchilik tasniflari, jumladan, uning mashhur asari «Al-Jomi'» ham o'z vataniga qaytganidan keyin yaratilgan. Imom at-Termiziy 892 yilda Termiz yaqinidagi Bug' qishlog'ida vafot etgan va shu joyda dafn qilingan.

Prezidentimiz bu alloma haqida shunday yozadilar: “Bugungi kunda Termiziyning ma’naviy meroslari nafaqat ahli din orasida balki dunyoviy bilim sohiblari, keng miqyosdagi ahli jamoa orasida ham o‘z qadrini topayotir. U kishining shoh asarlaridan “Kitob al-jomeo as-saxiq” hozirga qadar hadis ilmining asosiy manbaalaridan biri hisoblanadi. Allomaning asrlar davomida fozilu fuzalolarga dastur bo‘lib kelgan aqlu-odob, insofu-diyonat, adolatu insonparvarlikni targ‘ib qiluvchi g‘oyalari serdolg‘a davrimizning murakkab va ziddiyatli ahloqiy ma’naviy masalalarini hal etishda zamonaviy ahamiyat kasb etadi”.

Abu Iso at – Termiziy o'z ijodiy faoliyati davrida o'ndan ortiq asarlar yaratdi. Uning madaniy merosida, shubhasiz, «Al-Jomi'» asari katta ahamiyatga egadir. Bu asar «Al-Jomi' as-sahiyh» («Ishonchli to‘plam»), «Al-Jomi' al-kabiyr» («Katta to‘plam»), «Sahiyh at-Termiziy», «Sunan at-Termiziy» («Termiziy sunnatlari») nomlari bilan ham yuritiladi.

Muallifning yirik asarlaridan yana biri «Ash-shamoil an-nabaviyya» («Payg‘ambarning alohida fazilatlarini»)dir. Bu asar «Ash-shamoil muhammadiyya», «Ash-shamoil fi shamoil an-nabiy sallollohu alayhi vassallam nomlari bilan ham ataladi. Ushbu asar Saudiya Arabistonida istiqomat qilgan vatandoshimiz Said Mahmud Taroziy (u 1992 yili vafot etgan) tomonidan o‘zbekchaga o‘girilgan (arab alifbosida va kirillchada Toshkentda bir necha bor nashr qilingan). «Kitob at-ta'rix», «Kitob al-ilal as-sag‘iyr va al-ilal al-kabiyr», «Kitob uz-zuhd» («Taqvo haqida kitob»), «Kitob al-asmo val-kuna» («Roviylarning ismi va laqablari haqida kitob»), «Al-ilal fil-hadiys» («Hadislardagi illatlar yoki og‘ishlar haqida»), «Risola fil-xilof val-jadal» («Hadislardagi ixtilof va bahslar haqida risola»), «Asmo us-sahoba» («Payg‘ambar sahobalarining ismlari») shular jumlasidandir.

«AL-JOMI' AS-SAHIIYH»At-Termiziyning ijodiy faoliyatida yaratilgan asarlari ichida «al-Jomi' as-sahiyh» («Ishonchli to‘plam») eng asosiy o‘rinni egallaydi. Ushbu asar yuqorida qayd qilganimizdek, «al-Jomi' al-kabiyr», («Katta to‘plam»),

«Sahiyh at-Termiziy», «Sunan at-Termiziy» («Termiziy sunnatlari») kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Tarixchi Ibn Xajar al-Asqaloniyni yozishicha, at-Termiziy ushbu asarini 270 hijriy (884 melodiy) yilda, ya'ni qariyb oltmish yoshlarida, ilm-fanda katta tajriba orttirib, imomlik darajasiga erishgandan keyin yozib tugatgan.

Ushbu asar qo'lyozmalari dunyoning bir qancha shaharlarida, shuningdek, o'zimizda, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi, Abu Rayhon Beruniy nomli Sharqshunoslik institutida ham saqlanmoqda. Muhim manba sifatida «Al-Jomi' as-sahiyh» bir necha marta nashr qilingan. Bunga dalil sifatida 1283 (1866) yili Mitohda, 1292 (1875) yili Qohirada, shuningdek, 1980 yili Bayrutda nashr etilganligini ko'rsatish kifoya. At-Termiziyning bu muhim asariga bir qator sharhlar ham yozilgan bo'lib, ulardan ibn al-Arabiy (vafoti 543 hijriy, 1148 melodiy yili) nomi bilan mashhur bo'lgan imom hofiz Abu Bakr Muhammad ibn Abdulla al-Ashbiliyning «Oridat al-Ahvaziy ala kitob at-Termiziy» nomli 13 juz' (qism)dan iborat sharhlarini keltirish mumkin. Ushbu sharh dastlab 1931 yilda Qohirada nashr qilingan. Imom Hofiz Abu Ali Muhammad Abdurrahmon ibn Abdurahim al-Muborakfuriy (1283-1353) qalamiga mansub yana bir sharh ham «Tuhfat ul-Ahvaziy bisharhi at-Termiziy» deb ataladi. To'rt juz'dan iborat bo'lgan bu asar 1979 yilda Bayrutda nashr qilingan (Hindiston nashri ham mavjud). Misrlik olim va adib Jamoliddin Abdurrahmon ibn Abu Bakr as-Suyutiyni (1445-1505) at-Termiziy asariga yozgan sharhi «Qut al-mug'taziy ala Jomi' at-Termiziy» (undan ikki qismi nashr qilingan), deb atalgan.

Bulardan tashqari Muhammad ibn Abduqodir Abu at-Tayyib al-Madaniyni «Sharh Sunan at-Termiziy», Ahmad Muhammad Shokirning «Tahqiq va sharh Jomi' at-Termiziy» (o'ndan ikki qismi 1937 yilda Mustafa al-Bobiy al-Halabiy tomonidan nashr qilingan), Muhammad Yusuf al-Bannuriyni «Maorif sunan sharh sunan at-Termiziy» (uning birinchi qismi 1963 yilda Pokistonda nashr qilingan), Siroj Ahmad as-Sarhandiyni «Sharh sunan at-Termiziy» nomli forsha sharhi, shuningdek Rashid Ahmad al-Kanuhiyni «Al-kavkab ad-durriy ala at-Termiziy» (Hindistonda chop etilgan), Muhammad Anvarshoh al-Kashmiriyni

ikki juz'dan iborat «Al-Urf ash-shaziy ala Jomi' at-Termiziy» (bu asar ham Hindistonda chop etilgan) va nihoyat Abul-Hasan Muhammad ibn Abdulhodiy as-Sanadiyning (u 1138 yilda vafot etgan) «Hoshiya ala sunan at-Termiziy» kabi sharhlarini ko'rsatish mumkin.

Abu Iso at – Termiziy «ASH-SHAMOIL AN-NABAVIYYA» asari: Abu Iso at-Termiziyning boshqa bir yirik asari «Ash-shamoil an-nabaviyya» («Payg'ambarning alohida fazilatlari») deb ataladi. Bu asar ba'zi manbalarda «Ash-shamoil fi shamoil an-nabiy sallollohu alayhi vassallam», «Ash-shamoil al-Muhammadiyya» nomlari bilan ham keltirilgan. Asar payg'ambar alayhissalomning shaxsiy hayotlari, u zotning suvrat va siyratlari, ajoyib fazilat va odatlariga oid to'rt yuzu sakkiz hadisi sharifni o'ziga jamlagan qimmatli manbadir. Bu o'rinda shuni ta'kidlash kerakki, ushbu mavzu ya'ni payg'ambar alayhissalomning fazilatlari, odatlari haqidagi hadislarni to'plash bilan juda ko'p olimlar, muhaddislar shug'ullanganlar va bu xildagi hadislar turli-tuman kitoblardan o'rin olgan. Lekin at-Termiziy asarining boshqalardan afzalligi va farqi shundaki, muallif imkoni boricha payg'ambar alayhissalom fazilatlariga doir barcha hadislarni muntazam ravishda to'plab, mantiqan izchil bir holatda tartibga keltirgan va o'ziga xos mustaqil, yaxlit kitob shaklida tasnif qilgan. «Ash-shamoil an-nabaviyya» azaldan islomshunos olimlar va tadqiqotchilarning diqqatini o'ziga jalb qilib keladi. Arab tilida bitilgan ushbu asarga bir qancha sharxlar va hoshiyalar ham yozilgan. Ulardan Abdurauf al-Munoviy al-Misriyning (vafoti 1003 hijriy yili) «Sharh ush-shamoil», Ali ibn Sulton al-Haraviy al-Qoriyning (vafoti 1192 hijriy yili) «Jam' ul-vasoil fi sharhi ash-Shamoil», Sulaymon ibn Umar ibn Mansur al-Jumalning «Al-Mavohib al-Muhammadiyya bisharh ash-shamoil at-Termiziyya» kabilarni keltirish mumkin. Bu asarning bir qo'lyozmasi Qohiradagi al-Azhar kutubxonasida 144 hadis ilmi raqami ostida saqlanmoqda, Muhammad ibn Jasus al-Molikiyning (vafoti 1182 hijriy yili) «Al-Favoid al-jaliyla al-bahiyya ala «Ash-shamoil al-Muhammadiyya (bu asar 1927 yilda nashr qilingan) va nihoyat al-Azhar universitetining sobiq shayxi Ibrohim al-Bojuriyning (vafoti 1277

hijriy yili) «al-Mavohib al-Laduniyya ala ash-shamoil at-Termiziyya» kabi sharhlarini ko'rsatish mumkin.

At-Termiziyning «AL-ILAL FI-L-HADIYS» asari : Imom at-Termiziyning bizgacha yetib kelgan «Al-ilal fil-hadiys» («Hadislardagi illatlar yoki nuqsonlar») nomli muhim asari ikki mustaqil asardan tashkil topgan. Ulardan biri «Al-ilal al-kabiyr» yoki «Al-mufrad» nomi bilan atalgan asari bizgacha yetib kelmagan, degan taxmin bor. Garchand aksar tadqiqotchilar ham shunday fikrda bo'lsalar-da, Imom at-Termiziyning hayoti va faoliyatiga doir maxsus risola yozgan olim Nuriddin Atar (ushbu risolaning Bayrutda 1988 yilda chop etilgan ikkinchi nashrida) Turkiyaning qimmatli qo'lyozmalarga boy kutubxonalaridan birida at-Termiziyning «Al-ilal al-kabiyr» asarining yagona qo'lyozmasini ko'rgani va undan fotonusxa olib o'z tadqiqotining ushbu qayta nashrida foydalangani haqida yozadi. Uning yozishicha, at-Termiziy «Al-ilal al-kabiyr»ni ta'lif etgan paytda uni boblarga bo'lmagan holda yozgan. Ammo keyinchalik bu ajoyib kitob olim Abu al-Valid al-Qoziy tomonidan tartibga keltirilib boblarga ajratilgan va kitob oxirida mustaqil bir bob, hadis rijjol (roviy)lari haqidagi fikr mulohazalar bayon etilgan. Mashhur muhaddis Abu Iso at-Termiziyning shaxsiy hayoti va barkamol ijodining har tomonlama o'rganilishi tufayli buyuk bobokalonimizning hozirgi davrimiz uchun ham o'rnak bo'ladigan ko'p ibratomuz fazilatlarining guvohi bo'lamiz. Eng avvalo, at-Termiziyning yoshligidan ilm-fanga g'oyatda chanqoqligi va zo'r havas bilan qiziqishi, bu borada har qanday qiyinchiliklarga ham bardosh berib o'z maqsadi, ya'ni o'z bilimini oshirish yo'lidagi jiddu-jahdi katta-katta tahsinga sazovordir.

Yozma manbalarda keltirilishicha, hadisshunoslik ilmi sakkizinchi asrning ikkinchi yarmidan o'n birinchi asr o'rtalarigacha asosiy va zaruriy mashg'ulotlardan biri darajasiga aylangan. Bu davrda Sharqning turli mamlakatlaridan bo'lgan to'rt yuzdan ortiq mualliflar ana shu ilm (hadisshunoslik) bilan shug'ullanganlar.

Ma'lumki, o'z bilimini oshirish borasida at-Termiziy ko'pgina xorijiy mamlakatlarni ziyorat qilgan. Elma-el kezib, cho'lu biyobonlar oshib roviylardan

eshitgan hadislarini yitish bilan shug'ullangan. Ularni tartibli ravishda yozib qayd qilish bilan birga ushbu hadislarini qanchalik darajada sahiyh, hasan yoki zaif, mavzu (soxta, o'ylab chiqarilgan) ekanligini qayta-qayta tekshirgan, ilmiy ravishda chuqur tadqiq etgan. Allomaning shogirdlari orasida turli millat vakillari ham bo'lgan.

Yoshi qirqdan oshgan va turli mamlakatlar olimlaridan ta'lim olgan at-Termiziy ham Imom al-Buxoriy mashhur bo'lgan paytda yetuk olim darajasida tanilgan. Ikkala olim o'rtasida 863-868 yillar oralarida Nishopurda ko'pdan-ko'p samarali ilmiy munozaralar, samimiy do'stona uchrashuvlar bo'lgan. At-Termiziy o'z asarlari uchun ko'pgina foydali ma'lumotlarni al-Buxoriy bilan bo'lgan uchrashuvlarida olganligini yozadi.

Abu Iso at-Termiziy asarlari hozirda ham o'z qimmatini yo'qotgan emas. Uning «Al-Jomi' as-sahih», «Ash-shamoil an-nabaviyya» kabi asarlarida keltirilgan hadisi shariflar katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib insonlarni halol, adolatli, iymon-e'tiqodli, diyonatli, pokiza, mehnatsevar, muruvvatli, rahm-shafqatli, ota-ona, ayollarga nisbatan hurmat-e'tiborli bo'lishga chorlaydi.

Bu ibratli pand-nasihatlar va o'gitlar xalqimizni, jamiyatimiz ahlini, ayniqsa yosh avlodni tarbiyalashda beqiyos ahamiyat kasb etishini alohida ta'kidlash o'rinlidir. At-Termiziyning asarlari faqat diniy ilmlar majmuasiga oid bo'lib qolmasdan, balki dunyoviy ilmlarga oid ma'lumotlarga ham boydir. Masalan, uning bosh asari bo'lgan «al-Jomi' as-sahih»da tarix, mantiq huquqshunoslik, tabobat, ziroatga oid ko'plab qimmatli ma'lumotlarni uchratamiz. Arab tilini rivojlantirishda at-Termiziyning xizmatlari kattaligini zamonaviy olimlar qayta-qayta ta'kidlaydilar.

Xulosa qilib aytganda, buyuk bobokalonimizning shaxsiy hayoti va uning boy ma'naviy merosini chuqur va har tomonlama o'rganish ham ilmiy, ham amaliy jihatdan katta ahamiyatga egadir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 15-iyun kuni Toshkent shahrida "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofliğini asrash – davr talabi" mavzusida bo'lib o'tgan anjumandagi nutqida ham ulug' olim va ulamolarimizning ma'naviy merosini o'rganishga alohida e'tibor qaratdi. Farg'onadagi Marg'inoniy ilmiy markazida islom huquqi maktabi tashkil etish taklifini bildirdi. Ayni paytda bu borada amaliy ishlar olib borilmoqda.

Muxtasar aytganda, ulug' ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan va bugungi kunda ham ma'rifiy dunyoni hayratga solib kelayotgan ilmiy meros faqat bir millat yoki xalqning emas, balki butun insoniyatning ma'naviy mulki bo'lib, ushbu bebaho boylik avlodlar uchun donishmandlik va bilim manbai bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizda islom dini rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk allomalarimizning benazir merosini ilmiy asosda chuqur tadqiq etish, ularning ilmiy-ma'naviy jasorati, ulug' insoniy fazilatlarini keng targ'ib qilish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Buyuk ajdodimiz Burhoniddin Marg'inoniy asarlari ana shunday bebaho ma'naviy xazinadir.

Burhoniddin Marg'inoniyning (to'liq ismi Abdulhasan Ali ibn Abubakr Ibn Abdualil al-Farg'oniy al-Rishtoniy al-Marg'inoniy) o'lmas merosi, xususan, "Al-Hidoya" ("To'g'ri yo'l") kitobi musulmon olamida eng nufuzli va mukammal huquqiy manba sifatida e'tirof etiladi. Bu mumtoz asarning Yevropa xalqlari tillariga tarjima qilingani, hozir ham butun dunyoda katta qiziqish bilan o'rganilayotgani, unga turli tillarda ko'plab sharh va izohlar bitilgani Marg'inoniy merosining umumbashariy ahamiyatidan dalolat beradi. Buyuk allomaning ibratli hayoti, boy ilmiy merosini o'rganish va dunyo xalqlari o'rtasida, jumladan, yurtimizda keng targ'ib qilish maqsadida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. 2000 yilda Burhoniddin Marg'inoniy tavalludining 910 yilligi xalqaro miqyosda keng nishonlagani ham uning jahon sivilizatsiyaga qo'shgan hissasiga bo'lgan e'tiborning yuksak ifodasidir. Marg'ilon shahrida ulug' alloma xotirasiga katta maydon barpo etildi. Maydon markazida allomani dunyoga

mashhur qilgan “Al-Hidoya” asariga bag‘ishlab muhtasham yodgorlik o‘rnatildi. Yuksak gumbazli, islamiy naqshlar bilan bezatilgan baland ustunli, ayvonli bu yodgorlik shaharning ham tarixiy, ham zamonaviy qiyofasiga monand tarzda yaratildi. Ziyoratchilarning oyog‘i uzilmaydigan bu maskan endilikda Marg‘ilonning timsoliga aylandi. – Har gal shu maydonga kelganimda buyuk bobokalonimizning tarixda qoldirgan ulug‘ merosi, ilm-fan, ayniqsa, islom falsafasi, huquqshunosligi asoslari haqida yaratgan o‘lmas asarlari ko‘z oldinga keladi, – deydi O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi, “Do‘stlik” ordeni sohibi Ismoil Mahmud. – Alloma yaratgan asarlar bugungi kunda ham nafaqat sharq mamlakatlari, balki jahon miqyosida keng ilmiy tadqiq qilinmoqda. Dunyo qonunshunosligining ilmiy asosi, deb e‘tirof etilmoqda. Ana shunday ulug‘ alloma bizning zamindan ekani barchamizning qalbimizga g‘urur-iftixor bag‘ishlaydi. Burhoniddin Marg‘inoniy bobomizning asariga atab barpo etilgan bu majmua barcha ajdodlarimiz xotirasi e‘zozlangan maskan sifatida namoyon bo‘ladi. Marg‘ilon shahrida buyuk alloma nomida xalqaro jamg‘arma tuzilib, ko‘plab xayrli ishlarga hissa qo‘shib kelmoqda. Mehnat va o‘quv jamoalarida, mahallalarda olimlar bilan uchrashuvlar, davra suhbatlari o‘tkazilmoqda. Jamg‘arma tashabbusi bilan alloma qadamjolariga ilmiy ekspeditsiyalar uyushtirilib, u haqda kitoblar nashr ettirilmoqda. – Buyuk faqih Burhoniddin Marg‘inoniyning “Bidoyat ul-muntahiy” (“Boshlovchilar uchun dastlabki ta’lim”), “Kitob ul-mazid” (“Ilmni ziyoda qiluvchi kitob”), “Manosik ul-haj” (“Haj marosimlari”), “Majma un-navozil” (“Nozil bo‘lgan narsalar to‘plami”), “Kitob ul-mashoyix” (“Shayxlar haqida kitob”) va boshqa ko‘plab asarlari o‘z davrida musulmonlar uchun dasturilamal bo‘lib xizmat qilgan, – deydi Burhoniddin Marg‘inoniy nomidagi Xalqaro jamg‘arma raisi O‘ktamjon Eshonboboyev. – Keyinchalik, 1178 yilda Burhoniddin Marg‘inoniy “Kitob al-Hidoya” (“Hidoya” – “To‘g‘ri yo‘l”) asarini yaratdi. Buyuk bobomiz asarlarining mohiyati bo‘lmish adolat tuyg‘usi, o‘z davrining huquqiy mezonlari asosida yashash, o‘zganing mol-mulkiga ko‘z olaytirmaslik, haromdan hazar qilish, insof va diyonat, mehr-oqibat kabi xalqimizga xos ezgu tushunchalar bugungi kunda ham ma’naviy hayotimiz

asoslarini tashkil etadi. O'zining beqiyos salohiyati bilan buyuk ilmiy maktab yaratgan, islom huquqshunosligining ulkan namoyandasi Burhoniddin Marg'inoniyning tabarruk nomini butun musulmon dunyosi yuz yillar davomida e'zozlab kelmoqda. Allomaning Sharq olamida "Burhoniddin va milla", ya'ni "Din va millatning hujjati" degan yuksak unvonga sazovor bo'lgani ham buni yaqqol isbotlaydi.

Ko'hna Xorazm zaminida azaldan jahon fani va madaniyati rivojiga munosib hissa qo'shgan ko'plab buyuk allomalar yetishib chiqqan. Abul Qosim Zamaxshariy ana shunday ulug' siymolardan biridir. Mutaakkirning to'liq ismi Abul Qosim Mahmud ibn Umar Zamaxshariy bo'lib, 1075 yil 19 martda Xorazmning katta qishloqlaridan biri – Zamaxshar qishlog'ida tavallud topdi. Zamaxshariy haqidagi ma'lumotlar, asosan, o'rta asr arab manbalarida keltiriladi. Otasi unchalik badavlat bo'lmasa-da, savodli, taqvodor, diyonatli kishi bo'lgan va aksar vaqtini Qur'on tilovati-yu namoz o'qish bilan o'tkazib, Zamaxshardagi bir masjidda imomlik ham qilgan. Zamaxshariyning onasi ham taqvodor, dindor ayollardan hisoblangan. Alloma haqidagi manbalardan ma'lumki, uning bir oyog'i yog'ochdan bo'lib, tarixchilar bu haqda: "Bir oyog'i yog'ochdan edi va uzun yaktagini tushirib kiygani uchun ko'rgan odam uni cho'loq deb o'ylardi", – deb yozganlar. Og'ir illat tufayli u yoshligidan bir oyoq bo'lib qolgan va shundan so'ng otasi uni endi og'ir mehnatga yaramaydi, deb kiyim tikuvchi ustaga shogirdlikka bermoqchi bo'ladi. Biroq yoshligidan ilmga havasmand o'sgan Mahmud otasidan o'zini madrasaga o'qishga yuborishni so'raydi. O'g'lidagi ilmga bo'lgan zo'r ishtiyoq va havasni sezgan otasi uni madrasaga beradi. Zamaxshariy ilm-fanning turli sohalari bilan qiziqib, tolibi ilmlar orasida zo'r iste'dodini namoyon qila boshlaydi. U madrasada o'qitiladigan ilmlarni, ayniqsa, arab tili va adabiyoti, diniy ilmlarni puxta egallashga kirishadi, o'sha davrda ilm ahli orasida qadrlangan xattotlik san'atini ham mukammal egallab, o'z tirikchiligini birqadar tuzatadi. So'ng talabalik yoshiga yetgach, bilimini yanada oshirish, har tomonlama kamol toptirish maqsadida Buxoroga yo'l oladi. Zamaxshariy Buxoroda o'qishni tugatgach, bir necha yil Xorazmshohlar xizmatida bo'lib, kotiblik bilan shug'ullanadi,

hukmdorlar bilan yaqinlashishga urinadi. Biroq qobiliyati, ilmi, fazilatiga yarasha biror mansab va munosib e'tibor ko'rmagach, o'zga yurtlarga safar qiladi, maqsadlarining ushalishiga umid bog'laydi. 1118 yili Zamaxshariy og'ir dardga chalinadi, bu kasallikdan tuzalgach esa hukmdorlar xizmati, mansab va molidunyodan mutlaqo voz kechadi, qolgan umrini faqat ilm-fanga bag'ishlashga, asarlar ta'lif etishga astoydil qaror qiladi. Zamaxshariyning o'z davri ilmlarini to'liq egallashga, olimlik darajasiga yetishishida, shubhasiz, ustozlarining xizmati benihoya katta bo'lgan. Mana shunday ustozlardan biri – til, lug'at va adabiyot sohasida mashhur olim Abu Mudar Mahmud ibn Jarir Dabbiy Isfahoniydir. Isfahoniy Xorazmda ham bir qancha muddat yashagan. Bu o'lkada mo'taziliylar ta'limotining joriy bo'lishi ham mana shu Isfahoniy nomi bilan bog'liqdir. Zamaxshariy Bag'dodda shayxulislom Abu Mansur Nasr Xorisiy, Abu Saad Shaqqoniy, Abul Xattob ibn Abul Batar kabi mashhur olimlardan hadis ilmidan tahsil oldi. Makkada bo'lganida esa nahv va fiqh bo'yicha ilmni Abu Bakr Abdulloh ibn Talxat ibn Muhammad ibn Abdulloh Yabiriy Andalusiy, shayx Sadid Xayyatiy, lug'at ilmini esa Abu Mansur Mavhub ibn Xadar Javoliqiy kabi mashhur olimlardan o'rgandi.

Zamaxshariy hayoti davomida Marv, Nishopur, Isfahon, Shom, Bag'dod va Hijozda, ikki marta Makkada bo'ldi. Olim bu yerda ilmiy ishlarini davom ettirdi, arab tili grammatikasi va lug'atini hamda mahalliy qabilalarning lahjalari, maqollari, urf-odatlarini chuqur o'rgandi, bu mintaqa geografiyasiga oid xilma-xil ma'lumotlarni to'pladi. Adib ko'p asarlarini Makkaligida yaratadi. O'z hayotida chuqur iz qoldirgan Makkada Zamaxshariy besh yilcha yashaydi. Shu boisdan u Jorulloh ("Allohning qo'shnisi") degan sharaflı laqabga muyassar bo'ladi. O'z davrining yirik olimi darajasiga ko'tarilgan Zamaxshariyning Xorazmda ham, Sharqning boshqa ko'pgina shaharlarida ham ko'pdan-ko'p shogirdlari bo'lgan, alloma ko'p vaqtini o'shalarga bag'ishlardi. U qarindoshurug'larining qiyinqistovlariga qaramasdan, hayotida biror marta ham uylanmagan. Ilmiy asarlar yaratish va munosib shogirdlar tayyorlashni farzand o'stirishdan a'lo deb hisoblagan. Zamaxshariy oxirgi marta Makkadan qaytib Xorazmda bir necha yil

yashaydi va 1144 yil 14 aprelda vafot etadi. 1333 yili Xorazmda sayohatda bo'lgan mashhur arab sayyohi ibn Battuta (1304–1377) “Ar-Rihla” (“Sayohatnoma”) asarida Zamaxshariyning ustida qubbasi bo'lgan maqbarasini ko'rganini yozadi. Buyuk mutafakkir Zamaxshariy arab grammatikasi, lug'atshunoslik, adabiyot, aruz ilmi, geografiya, tafsir, hadis va fiqhga oid elliqdan ortiq asarlar yaratgan, ularning aksariyati bizgacha yetib kelgan. Arab tilshunosligi va grammatikasining turli tomonlariga oid asarlar Zamaxshariy ijodida salmoqli o'rin egallaydi. Jumladan, arab tili grammatikasiga oid “Al-Mufasssal” (1121 yil) nomli asarini u Makkada yashagan paytida, bir yarim yil davomida yozgan. Zamaxshariyning xorazmshoh Alouddin Abulmuzaffar Otsizga bag'ishlab yozilgan “Muqaddamat ul-adab” asari alohida ahamiyatga egadir. Bu o'rinda shuni ta'kidlash kerakki, xorazmshohlar davrida ilm-fan, madaniyat ancha taraqqiy qilgan edi. Hukmdorlar, ayniqsa, xorazmshoh Otsiz olimlar, shoiru adiblarga hurmat bilan qarar, o'zi ham iste'dodli, ma'rifatparvar, adabiyotga qiziqqan, bilimdon odam edi. Uning davrida ilm-fan taraqqiyoti yo'lida bir qancha xayrli ishlar amalga oshirilgan. Shu sababdan bo'lsa kerak, Zamaxshariy “Muqaddamat ul-adab”ni uning nomiga bag'ishlab yozgan. Asar besh katta qismga bo'lingan bo'lib, otlar, fe'llar, bog'lovchilar, ot o'zgartishlari va fe'l o'zgarishlari haqida bahs yuritadi. Asar 1137 yillari yozib tugallangan. Zamaxshariy o'z asarida o'sha davr arab tilining iste'molda bo'lgan barcha so'zlari, iboralarini qamrashga intilgan, ularning etimologiyasiga katta e'tibor qilgan. Shu boisdan ham Zamaxshariyning bu yirik asarini mazkur yo'nalishdagi dastlabki asarlardan deyishga haqlimiz. “Muqaddamat ul-adab”ning arab, fors, turkiy-o'zbekcha, mo'g'uliy so'zlik kiritilgan qo'lyozmalari mavjud. Zamaxshariy Makka amiri, olim va adib Abul Hasan Ali ibn Hamza ibn Vahhos as-Sulaymon bilan do'st edi. Ibn Vahhos o'z mamlakatining geografiyasi bilan juda yaxshi tanish bo'lgan. Zamaxshariy ibn Vahhos ma'lumotlariga tayanib, o'zining Hijozga qilgan safaridan olgan shaxsiy kuzatishlari asosida yozgan “Kitob ul-jibol val-amkina val-miyoh” (“Tog'lar, joylar va suvlar haqida kitob”) nomli asarida jug'rofiy joylar, tog'lar va dengizlarga doir qimmatbaho ma'lumotlar keltiradi. Zamaxshariy adabiyot, tafsir, hadis, fiqh ilmlari bo'yicha ham mukammal

asarlar yaratgan. Olimning “Asos ul-balog‘a” (“Balog‘at asoslari”) asari, asosan, lug‘atshunoslikka bag‘ishlangan. Unda arab tilining fasohati, mukammalligi haqida so‘z boradi. Fikrni chiroyli ibora va so‘zlar bilan ifodalash, so‘z boyligidan ustalik bilan foydalanish uchun kishi fasohat, balog‘at ilmlaridan yaxshi xabardor bo‘lishi kerak. Buning uchun so‘zni to‘g‘ri, o‘z o‘rnida ishlatish, qoidaga muvofiq so‘zlash va yozish ham kerak bo‘lgan. Bu asarda adabiyotning asosiy qismlari, frazeologik so‘z birikmalari, ularni amalda tatbiq etish yo‘llari chuqur tahlil qilingan. “Atvoq uz-zahab fil-mavoi‘z val-xutab” (“O‘git va nasihatlarining oltin shodalari”) asari nasihatimiz maqolalar to‘plamidan iborat. Asar birinchi marta 1835 yili olmon olimi Fon Xomir tomonidan nemischaga tarjima qilinib, arabcha matni bilan nashr etilgan. Zamaxshariyning “Rabi’ ul-abror va nusus ul-axyor” (“Yaxshilar bahori va fozillar axbori”) asarida adabiyot, tarix va boshqa fanlarga oid hikoyalar, latifalar, suhbatlarning eng saralari jamlangan, 97 bobdan iborat bu asarning nodir bir qo‘lyozma nusxasi Toshkentda, O‘zR FA Sharqshunoslik institutida saqlanadi. Bundan tashqari, Leyden, Berlin kutubxonalarida ham qo‘lyozmalari mavjud. Zamaxshariyning g‘oyatda keng tanilgan “Kashshof an haqiq it-tanzil va uyun ilaqovil fi vujuh it-ta’vil” (“Qur‘on haqiqatlari va uni sharhlash orqali so‘zlar ko‘zlarini ochish”) asari Qur‘on tafsiriga bag‘ishlangan. “Kashshof” Zamaxshariy Makkada turgan paytida, uch yil davomida (1132– 1134) yozilgan.

Zamaxshariyning chuqur bilimi, dahosi va fanning turli sohalariga oid o‘lmas asarlari hali u hayot paytidayoq butun musulmon Sharqida unga katta shuhrat keltirgan. Allomani chuqur hurmat va mehr bilan “Ustoz ul-arab val-ajam” (“Arablar va ajamlar ustoz”), “Faxru Xvarazm” (“Xorazm faxri”) kabi sharaflilar nomlar bilan ataganlar. Mashhur olimlar, shoirlar, adiblar davrasida u doimo peshvolardan biri bo‘lib, qizg‘in ilmiy bahslar, munozaralarda uning fikri inobatga olinardi.

Abu Mansur al Moturudiy

Abu Mansur al Moturudiy — islom mutafakkiri, kalom maktablaridan biri “matrudshunoslik”ning asoschisi va eponimi. Abu Mansur al Moturudiy 1870 yil

Samarqand yaqinidagi Motuurid shahrida dunyoga kelgan. Al-Moturidiy Abu Bakr Ahmad al-Juzjoni, Abu Nasr Ahmad al-Iyodiy, Imom A'zam mazhabidagi buyuk olim Nasr ibn Yahyo al-Balxiy, Muhammad ibn al-Fadl kabilarni o'zining ustozlari deb bilgan. Natijada, Al-Moturidiy fiqh va kalom ilmlaridan dars bergan.

Kalom — o'rta asr musulmon adabiyotida: diniy falsafiy mavzudagi barcha mulohazalar, shu o'rinda, alohida ma'noda islom dinidan kelib chiqadigan fikrlarda diniy aqidaparstlikka ergashish emas, balki aqlga asoslangan sharhni beruvchi spekulativ tartib.

Fiqh — Musulmonlarning xulq-atvor qoidalari, shuningdek, ijtimoiy me'yorlar to'plami majmui. Moturidiy 940 yil vafot etgan va Samarqanddagi Chokardiz qabristoniga qo'yilgan. Kalomning bir qator savollariga Moturidiy va uning izdoshlari asharitlari kabi javob berishgan: ular Qur'onning ma'nosiga ko'ra uni abadiy deb bilishgan, solihlar Allohni narigi dunyoda qay holatda bo'lsa-da ko'ra olishadi, inson xatti-harakati Alloh tomonidan amalga oshiriladi, inson esa bor-yo'g'i irodasi va qobiliyati orqali ularni o'zlashtiradi, Allohni (uning bilimi, qudrati va hokazo) haqiqiy va abadiy deb hisoblashgan. Ammo asharitlardan farqli o'laroq, Moturidiy abadiylikni Allohning nafaqat belgilar mohiyati bilan, balki harakatlarining abadiyligini tan olgan; xuddi mutazilitlar insonda tanlash huquqi bor deb hisoblashganliklari singari, shu o'rinda, Yaratganga ishonish diniy marosimlar orqali emas, balki Allohga bo'lgan nutqiy iqrorlik kabi ikki qarama-qarshiliklar orasidagi tanlov kabi.

Al Moturidiy ta'limoti Movaraunnaxr xalifatlari orasida ham tarqalgan.

Imom Moturidiy Samarqand mazhab vakillari kabi uning atrofidagi mazhab egalari bilan olib borgan bahs-munozaralarda ham ilg'or bo'lgan. Moturidiy karamit, shiit va mutazilitlar bilan ham bahslar olib borib, ularga nisbatan qarshi nuqtai nazarga ega bo'lgan va o'zining asarlaridan birini o'zining ziddiyat fikriga bag'ishlagan.

Moturidiy ishlarini keyingi toifalarga ajratgan:

Kalom va bahs san'ati ishlari.

Usulga bag'ishlangan ishlar.

Tafsir va Qur'on bilimlari ishlari.

Alloh farzlari va sunnatlariga bag‘ishlangan ishlari.

Al Moturidiy asarlaridan keyingilar ma’lum: Qur’onga izoh “Taavilat al-Qur’on” Abu Hanifaning “Al-fiqh al-akbar” risolasiga “Sharx ul-fiqh il-akbar” nomli sharhi “Yakkaxudolik kitobi” (“Kitab ut-tauxid”). 2000 yil Abu Mansur al Moturidiy tavalludining 1130-yilligi O‘zbekistonda keng nishonlangan. Mazkur sanada uning ishlari nashrdan chiqqan, xalqaro konferentsiyalar o‘tkazilgan, Samarqandda uning qabrida memorial majmua ochilgan. 2000 yil O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan olimning vayron qilingan maqbarasi o‘rnida me’moriy majmua bunyod qilinib, uning markazidan olimning maqbarasi joy olgan. Mazkur yodgorlikning qurilishida o‘zbek me’morchilik san’atining eng yaxshi milliy an’alaridan foydalanilgan. Me’moriy majmua Rahmatullo Salohitdinov loyihasi asosida, Egamberdi Nurullayev hammuallifligida qurilgan. Qurilishda samarqandlik Mirumar Asadov, Matlub Mahmudov, Yoqub Tagirov, Toshpo‘lat Atoev kabi xalq ustalari ishtirok etishgan. Interyeri ustida Amriddin Najmiddinov ish olib borgan. Ekstererlarni Hakim Asadov amalga oshirgan. Maqbara maydoni 12x12, balandligi 17,5 metrni tashkil qiladi. Gumbazi ikki qavat. Tashqi gumbazi qovurg‘asimon bo‘lib, havo rang ko‘shk bilan bezalgan. Tom gumbazi 24 ark hamda oyna alebastr panjaralar bilan bezalgan. Ichki va tashqi qoplamalarda koshin, ko‘shk va ganchdan foydalanilgan. Qabr toshi oq marmardan yasilib, Imom al Moturudiy yozuvi o‘yilgan.

2.2. IX-XII asrlarda O‘rta Osiyo xalqlari xo‘jaligi, moddiy madaniyati va me’morchiligi.

Somoniylar sulolasi xukmdorligi davrida Movarounnahrda xo‘jalik taraqqiyoti faqat Markaziy Osiyoninggina emas, balki Old Osiyoning ham etuk hududlaridan biri hisoblanardi. Shahar bilan qishloq o‘rtasidagi, o‘troq dehqonchilik hududlari bilan ko‘chmanchi qabilalar o‘rtasidagi maxsulot ayirboshlashning kuchayib borishi, karvon savdosining usishi o‘lkaning qishloq xo‘jaligini, kon ishlari va xunarmandchilikning rivojlanishi omili bo‘ladi.

Movarounnahr iqtisodi musulmon mamlakatlari orasida etakchi o'rinlardan birini egallar edi.

IX asrda Movarounnahr asosan qishloq xo'jaligi mamlakati bo'lganligidan xatto xunarmandlar ham bu soxa bilan shug'ullanar edilar, hech bo'lmaganda ular o'z tomorqa yerlarida ishlab o'zlariga kerakli bo'lgan maxsulotlarni bu yerlardan olardilar. Yozma manbalarning bergan ma'lumotlariga qaraganda Zarafshon, Qashqadaryo voxalari, Farg'ona, Eloq Shosh va Xorazmda IX—X asrlarda bug'doy, arpa, sholi, tariq g'o'za va boshqa ekinlar ekib dehqonchilik qilganlar. O'lkaning kattagina qismida lalmikorlik dehqonchilik madaniyati ham bo'lgan. Bundan tashqari beda, zigar, kanop ekish ham axoli dexdonchiligida qo'llanilgan. Zig'ir va kanopdan olingan yog'lar o'sha davrda katta shuxrat topgan. Xorazmda sedana, kunjut etishtirilgan va ulardan yog' maxsulotlari tayyorlangan.

Movarounnahr va Xorazmda ko'plab bog'dorchilik polizchilik taraqqiy etgan, meva-cheva etishtirilgan. Shaftoli, o'rik, nok, olma, anor, anjir, uzum, olcha, olxo'ri, kovun-tarvuz, xullas deyarli hamma mevalar turlari bo'lgan.

O'lkamiz o'z davrining yirik xunarmandchilik markazlaridan hisoblangan. Jumladan, **Zandona va Iskijkat** kishloqlarida to'qilgan bo'z matolar Eron, Iroq va Xin-distondan tashqari joylarga ham olib ketilgan va mashhur bo'lgan. Buxorodan chet mamlakatlarga qo'y terisi, yog', soch moyi, mayin gazlamalar, joynamoz gilamlar, gilamlar, mexmonxonalarga yoziladigan matolar, Ushmundan matolar, egarlar, Taboristondan — matolar, go'sht va qovunlar, har xil shoyilar, ro'mollar, uzangilar, suvluqlar, qayishlar, qozonlar, yong'oqlar, Jizzaxdan jun gazlamalar va kiyimlar, Shoshdan a'lo sifatli charm va charm mahsulotlari, o'qdonlar, egarlar, chodirlar, chaqmonlar, namoz gilamchalar, elkapo'shtlar, kamonlar, ignalar,. bo'z, g'alla va kaychilar chiqarilgan.

Arab geograflari Elok viloyatini Shosh bilan Farg'ona oraligida joylashganligini qayd etadilar. Elok X asrda kumush — qo'rg'oshin qazib chiqarishning markazlaridan biri bo'lgan. Eloqda Movarounnahrning uchinchi kumush zarbxonasi ochilgan. Biri Samarqandda, yana boshqasi Buxoroda bo'lgan.

Eloq chekani —«Shosh koni» deb o`sha davrda shuhrat topgan. O`z vaqtida Xuroson noibi Ma'mun ibn Xorun ar-Rahid nomidan zarb qilingan kumush dirhamlarning birida «Shosh konida» 189 xijriy yilida (805 yil) zarb qilindi», yana boshqa birida esa «190 (805—806) yilda» degan so`zlar bor.

Eloqdagi kumush konining nechog`lik katta ahamiyatga molik ekanligini tasavvur qilish uchun e'tiborni shunga qaratmoq joizdir, o`sha vaqtlarda kumushni muomalada juda ko`p ishlatgan Sharqiy Evropaning o`zida bironta ham kumush – qo`rg`oshin koni bo`lmagan. Sharqiy Evropadagi davlatlarda muomalada asosan somoniylar zarb etgan tangalar bo`lgan.

Movarounnahr xo`jaligida temir qazib chiqarish ham katta o`rin tutgan. Temir Ushrushonaning ikki hududidan — Mink va Marsmandan qazib olingan. Temir rudaning bir qismi shu yerning o`zida eritilgan va ishlatilgan, qolgan qismi esa Farg`onaga olib ketilgan. Asbar (Isfara) da toshko`mir qazib olingan, Farg`onada neft borligi aniqlanib undan xarbiy maqsadlarda foydalanganlar. Marsmandada, har oyning boshida bir marta bozor ochilardi. Bu bozorga juda uzoq joylardan odamlar kelardi. Somoniylar davrida Movarounnahr xo`jalik xayotida Xorazm katta o`rinni egallagan. Xorazm chetga savsar mo`ynasi, oq supsar mo`ynasi, sassikko`zan muynasi, latcha muynasi, tulki. quyon va echki mo`ynalari, sham, o`q, ok terak po`stlog`i, uzun qalpoqlar, baliq elimi, kanakunjut moyi, anbar, oq terisidan ishlangan charm, asal, yong`oq, lochin, qalqonlar, slaviyan qullari, qo`ylar va sigirlar chiqarar edi. Xorazm bu buyumlarni bulg`orlardan olardi. Bo`lardan tashqari Xorazm chet mamlakatlar bilan ko`plab quruq mevalar, targ`it movud, qand-qurs, gilamlar, kimxoblar, choyshablar, va qulublar, kamonlar, pishloq bo`za, baliq, qayiqlar va boshqa mahsulotlar bilan ham savdo qilardi. Qoraxoniylar davrida aholi dehqonchilik, xunarmandchilik, chorvachilik, ovchilik va savdo-sotiq bilan shug`ullangan. Ko`chmanchi chorvadorlar oilasidan chiqqan qaraxo-niylar xonadoni a'zolari bilan mahalliy o`troq xalq orasidagi munosabatlar juda e'tiborlidir. Bu borada Yusuf Xos Hojib Bolosog'unining 1069 yilda yozgan «Qudatg`u bilig» («Qutga, ya'ni baxt-saodatga erishtiruvchi bilim») asari bizga

juda ko'p muammolarni echib beradi. Yusuf Xos Hojib Bolosog'un va Qashg'arda bo'ladi, xon sa-roylarida yashab, saroy muhiti bilan tanishadi. Tomg'och xonlardan biriga bag'ishlangan bu asarda u ijtimoiy xayotning o'troqlik va ko'chmanchilik tartibiga baho berishda hech ikkilanmasdan ijobiy fikr yuritadi. Yusuf Xos Hojib fikricha feodal jamiyatning asosiy kuchlari bo'lgan dehqonlar, hunarmand kosiblar, olimu donolar va savdogarlar ko'chmanchi chorvadorlarga nisbatan jamiyat uchun foydaliroqdir. Shu munosabat bilan u o'zining didaktik asarida Tomg'ochxonga murojaat qilib, ularga qanday munosabatda bo'lish kerakligini bildiradi.

Qoraxoniylar davlatida butun siyosiy tizim g'oyat ulkan yer fondi hisobidan yashagan. Bu er fondi bir necha turlarga bo'lingan: 1. Sultan erlarch. Bu yerlar davlat xazinasiga tushadigan asosiy soliq tushumlari va iqta taqsimoti fondining manbai hisoblangan. Qoraxoniylar davrida iqtani meros qilib o'tkazish tez-tez uchrab turgan. 2. Vaqf yerlari, qoraxoniylar hukmronligi davrida islom dinining o'rni va ahamiyati oshdi, u davlat dini darajasiga ko'tarildi. Hatto olib boriladigan urushlar g'azovot shiori ostida uyushtirilgan. Ruhoniylar o'zlarining davlat oldidagi bu xizmatlari evaziga katta-katta yerlar va mulklar olar edilar. Bunday turli xildagi ko'zg'aluvchi va ko'zg'almas mulkni masjid va madrasalarga vasiyat qilib qoldirish tartibi keng tarqalgan. Bu vaqf yerlari deb atalardi.

Qoraxoniylar va saljuqiylar istilosi tufayli Movarounnahr va Eronga juda ko'plab ko'chmanchi turk qabilalari kelib joylashdilar. Ularning ko'pchiligi o'troqlasha boshladilar va o'troq mehnatga ko'chdilar. Ammo qoraxoniylarning qo'shin boshliqlari o'troq turmush sharoitiga o'tishni o'zlari uchun zarur deb topmadilar. Chunki, ularning juda ko'p poda mollari va yaylovlari bor edi. Ular iloq xonlarga zarur bo'lgan hollardagina shaharga tushar va hizmatni ado etardilar.

Qoraxoniylar hukmdorlar aholidan olinadigan iqta to'lovini olish uchun doimiy suratda shaharda-qo'rg'onda bo'lishlari shart emas edi. Ko'chmanchi- iqtador o'z ko'chmanchilik hayotini bemalol tinchgina davom ettirishi va o'ziga qarashli

qishloq yoki qishloqlardan keladigan foydalarni yilning ma'lum bir muddatida o'z vaqtida olib turishi mumkin edi. Bunday to'lovlar bug'doy, paxta, uzum, quruq, meva, mata, pul shaklida bo'lardi. Ammo bundan XI asrda turklar xukmronligidan so'ng yirik shaxsiy yer egaligi tugatildi, deb o'ylamaslik lozim. Iqta faqat yer egalaridan daromad olishning asosiy shakli edi, xolos. Iqtani faqat turk harbiy boshliqlariga berilgan, deb o'ylash ham xatodir. Iqtador bo'lish har bir yirik zodagon yoki hokim tomonidan amalga oshirilishi mumkin edi.

Iqta o'zgarmas, qotib qolgan shakl bo'lmagan. Feodal yer egaligining boshqa shakllari evolyusion o'zgarishni o'z boshlaridan kechirganliklari singari, iqta ham xuddi shunday evolyusion o'zgarishni o'z boshidan kechirdi. Jumladan iqta keyinchalik vaqtinchalik in'omdan, muddatsiz in'omga, muddatsiz in'omdan merosga aylana bordi.

Shunday qilib, somoniylar, undan so'ng esa qorahoniylar hukmronligi davrida feodal yer mulkchiligining eski shakli qoldiqlari bilan bir qatorda feodal yer egaligining yangi shakllari ham paydo bo'ldi va tez rivojlandi. Bu yangi shakl XI asrda jamiyatda hukmron mavqega ega bo'ldil.

Me'morchilik va san'at: IX-XII asrlarda o'lkada markazlashgan yirik davlatlarning shakllanishi va ularning rivoji, davlatchilikning mustahkamlanishi, ma'naviy hayot, ilm-fanning rivojlanishigagina emas, balki moddiy madaniyatning ham rivojlanishiga asos bo'ldi. Samarqand, Buxoro, Urganch, Termiz, Uzgan va Marv kabi shaharlarda saroylar, masjid, madrasalar, minoralar, maqbaralar, tim va karvonsaroylar ko'plab qurila boshladi.

Bu davr O'rta Osiyo me'morchiligida ijtimoiy sharoitdan kelib chiqib, qurilish materialli sifatida paxsa, xom g'isht va pishiq g'isht hamda bog'lovchi element sifatida ganchdan foydalanish keng yo'lga qo'yilgan edi. Bu vaqtda sinch qadab quriladigan uy-joylar va umum ahamiyatga ega bo'lgan binolar, saroylar, masjidlar, madrasalar qurilishida yog'och ham muhim o'rin egallar edi.

X asrlarga kelib binokorlikda qurilish tartibi ham o'zgara boshladi. Mahobatli qurilishda tomi gumbaz bilan yopilgan kub shaklidagi binolar muhim ahamiyatga ega bo'la boshladi. Buxoroda qurilgan Ismoil Somoniy qabri ustiga pishiq g'isht bilan qurilgan go'zal maqbara fikrimizga misol bo'la oladi. Bu bino to'rtburchak shaklida bo'lib, tomi gumbaz qilib yopilgan. To'rtburchakdan nayzali ravotlar yordami bilan sakkiz qirrali shaklga o'tilgan. Shu bilan birga bu bino to'rt fasadlidir. Uning to'rttala tomoni ham bir xil, old tomonidek bezatilgan. Oddiy qilib aytganda, binoning oldi, yoni va orqa tomoni yo'q. Hamma tomoni bir xilda bezatilgan. Ismoil Somoniy maqbarasini qurishda va bezatishda arablardagi o'sha davr uchun xos bo'lgan me'moriy xususiyatlardan ham ko'p foydalanilgan. Masalan, binoning tashqi burchaklariga ustunlar o'rnatish. Bino ichidagi bunday shakldagi, shuningdek, dumaloq manzarali maydonlar ham islomgacha bo'lgan yodgorliklarda uchraydi.

IX-X asr me'morchiligi uslublarini saqlanib qolganligini ko'plab masjidlar misolida ham kuzatish mumkin. Yozma manbalarda qayd qilinishicha, somoniylar davridagi ko'pgina masjidlar o'z vaqtida arablargacha bo'lgan ibodatxonalarning masjidga moslashtirish asosida qurilgan. Ular bir xonali bo'lib, masjidning tomlari ustunga tayanib turgan. Masjidlarning tomi odatda gumbaz shaklida bo'lgan. Masjidlarda, ayniqsa, mehroblari shaklli, yozuvli qilib qirrilgan g'ishtlar, o'yma ganchlar va hatto tilla suvlar bilan bezatilgan. Bu davrga oid masjidlar to'g'risida so'z yuritilganda, Buxorodagi Mag'oki Attoron, Poykand masjidi, Termizdagi Chorustun, Shahrisoning Chirchik masjidlari qayd qilish mumkin. Bu yodgorliklar O'rta Osiyoda diniy me'morchilikning rivojlanish yo'llarini kuzatish imkoniyatini berdi.

Narshaxiyning yo'zishicha, amir Nasr ibn Ahmad Buxoro Registonida o'zi uchun katta saroy qurdirgan va uning qurilishiga katta mablag' sarflagan. Bu saroy g'oyat go'zal bo'lgan. Saroyning oldida esa devonlar uchun binolar qurilgan. Amir va hokimlar saroyi Nishopur, Marvda, Samarqand va boshqa shaharlarda ham

bo'lgan. Bu saroylar o'zlarining kattaligi va go'zalligi bilan ajralib turgan. Ko'p hollarda bunday saroylar xushmanzara joylarda, bog'lar ichida bunyod etilgan.

Saroylarning go'zalligini Termiz shahridagi saroy misolida ko'rish mumkin. Bu saroy to'liq ochib o'rganilgan. Saroy shahar mudofaa devorlaridan tashqarida, bog'lar orasida joylashgan va 10 gektarga yaqin maydonni ishg'ol etgan. Saroy mudofaa devorlari bilan o'ralgan. Saroy o'zining mahobatligi, serhashamligi va bag'oyat go'zal, nafis bezaklari bilan odamni o'ziga jalb qiladi.

Somoniylar davriga oid shahar va qishloq aholisining uylari to'g'risida hozir arxeologiya ancha ma'lumotlarga ega. Bu borada qadimiy Samarqand-Afrosiyob, Xorashkent-Kanka, Binkent, Termiz, Marv, Dehiston kabi o'nlab yodgorliklarda olib borilgan izlanishlarning natijasi diqqatga molikdir. Afrosiyobda bu davrga oid katta bir mahalla ochib o'rganilgan.

Somoniylar davrida me'morchilik o'z taraqqiyotida katta yutuqlarni qo'lga kiritgan. O'rta Osiyo me'morlari bu davrda shunday noyob binolar, san'at durdonalarini bunyod etganlarki, ular asrlar osha odamlarni hayratga solib kelmoqda.

Qoraxoniylar O'rta Osiyoni bosib olgandan so'ng bu yerdagi madaniy hayotda ham katta o'zgarishlar ro'y berdi. Shaharlar taraqqiy etdi, hunarmandchilik, savdosotiq rivojlandi. Shaharlar rivojlanishi bilan shahar aholisi soni ham ko'payib bordi. Somoniylar davridayoq yirik shaharlar bo'lgan Samarqand, Buxoro, Termiz, Marv, Qoraxoniylar davrida yanada kengaydi. Bu shaharlar endi uch qismli-ark, shahriston, rabotdan iborat edi. Ularda yangidan yangi hashamatli imoratlar paydo bo'lib, bu imoratlar o'z tuzilishi va naqshlari bilan ajralib turardi.

Qoraxoniylar hukmdori Shams-ul-Mulk Buxoro yaqinida saroy barpo etdi va bundan tashqari Hazara qishlog'i yaqinida Dingaron masjidini va uning yonida Barot-i-Malik nomi bilan mashhur bo'lgan karvonsaroy qurdiradi. Buxoro shahrida 1127-yilda Qoraxoniylar Arslonxon tomonidan mashhur imorat-Minorayi Kalon barpo

etildi. Vobkentda XII asrning oxirida Buxoro sadri Abdulaziz II tomonidan qurilgan minorani, Jarqo'rg'onda (Surxondaryo viloyati) Qoraxoniylar tomonidan 1108-1109-yillarda barpo etgan minorani, shuningdek, Buxorodagi Nomozgohni va Attoriy masjidini alohida ta'kidlab o'tish mumkin.

Qoraxoniylar davrida Samarqand shahrida ham ko'plab binolar barpo etildi. Afrosiyobdagi arxeologik qazilmalar shundan dalolat berib turibdi. Lekin mo'g'ullar istilosidan so'ng bu binolar vayronaga aylandi.

Termiz shahri XI-XII asrlarda ancha rivojlandi, yangi mustahkam mudofaa devori qurildi, bu yerda barpo etilgan Termiz hukmdorlari saroyi ayniqsa mashhurdir. Bu saroyi qazib ochgan arxeologlar turli idishlar bilan birga afsonaviy hayvonlar tasvirini ham topishdi. XI-XII asr boshlarida Xorazmda ham ko'pgina binolar qad ko'tardi, jumladan, Urganchdagi Faxriddin Roziy va Shayx Sharif maqbarasini, ko'plab karvon saroylarni, Buronqal'a, Naifqal'a va boshqalarni aytib o'tish mumkin.

Biz o'rganayotgan davrda me'morchilikdan tashqari bir necha suv inshootlarini qurish va unda yo'nilgan tosh, pishiq g'isht, suvga chidamli qurilish qorishmalaridan-bandlar, novlar, ko'priklar, sardobalar va korizlar qurilgan. Bu inshootlar mamlakatda fan va ishlab chiqarishni g'oyatda rivojlanganligidan dalolat beradi. 1,5 mln. m.kub suvni to'plash imkoniyatiga ega bo'lgan Xonbandi nomli suv omborining qurilishi fikrimizning dalili bo'lib xizmat qiladi. Manbalardan ma'lum bo'lishicha, bunday suv inshootlarini qurish uchun suvning vertikal va gorizontal bosim kuchlarini hisoblab chiqish va tog'da qurilganligi uchun tez-tez yerning qimirlab turish kuchlarini ham matematik yo'llar bilan hisoblab chiqish lozim bo'lgan va bu ish muvaffaqiyatli amalga oshirilgan.

Bu davr me'morchiligi bilan bir qatorda unga bog'liq bo'lgan naqqoshlik va tasviriy san'at ham jadal sur'atlar bilan rivojlandi. Imoratlarni o'ymakor ustunlar va to'sinlar, devorlarni esa bo'yoqli, ganchkor naqshlar bilan bezash keng rasm bo'la boshladi. Sekin-asta naqqoshlik san'atida ham ilgari gidek, odamlar va

hayvonlarni tasvirlangandan ko‘ra murakkab geometrik va gulli naqshlarga o‘tila boshlandi.

Naqqoshlik san‘ati qadimgi Termizda juda rivojlangan edi. Bu borada Hakim Termiziy maqbarasi davridan saqlanib qolgan o‘yma naqsh parcha ayniqsa qimmatlidir. Unda Samarqand usulini eslatuvchi sebarcha shaklidagi o‘ziga xos uslublar mavjuddir. Bu davrda hattotlik san‘ati kitoblarni ko‘chirishdagina emas, balki binolarni bezashda ham keng qo‘llanila boshlandi.

2.6. GLOSSARIY

QALANDAR	Kalender	GOLD
ASH’ARIYA	Ash'ari	COUNSELING
BAYT UL-HIKMA	БАЙ УЛЬ-ХИКМА	BAY UL-HIKMA
BAYTULLOH-	BAYTULLOH-	BAYTULLOH-
JOME’ MASJIDI	JOME 'MASJIDI	JOME 'MASJIDI
“ZIJ”-	"ZIJ" -	"ZIJ" -
“IKKINCHI MUALLIM”-	"ДВА МУАЛЛИМА" -	"TWO MUALLYM" -
KALOM	WORD	KALOM
KALOM ILMI	КАЛОМ ИЛЬМИ	KALOM ILMI
MADRASA	Madra	MADRASA
MASJID	мечеть	MASJID
MAZHAB-	мазхабов	MAZHAB-
MAQBARA-	MAQBARA-	MAQBARA-
MOLIKIYA-	MOLIKIYA-	MOLIKIA-
RENESSANS	Renaissaince	RENESSANCE
SUNNA-	SUNNA-	SUNNA-
TARIQAT-	TARIQAT-	HISTORY-
TAFSIR-	TAFSIR-	TAFSIR-
FARZ-	FARZ-	FARZ-
FIQH-	FIQH-	FIQH-
XATIB-	XATIB-	ERROR-
XUTBA-	XUTBA-	XUTBA-
XONAQOH	Дервиш Lodge	HONAGH
XO‘JA-	госпитали	XOJA-
SHAYX	шейх	SHAYX
SHAYX UR-RAIS”-	ШЕЙКС УР-РАЙС ”-	SHAYX UR-RAIS ”-
SHIALIK	Шайа	SHIALIK

SHOFI'IYA-	SHOFI'IYA-	SHOFI'IYA-
QOZI-	QOZI-	QOZI-

ASH'ARIYA– kalom ilmidagi oqimlardan biri bo‘lib, uning asoschisi Abulhasan Ali ibn Ismoil al-Ash’ariy (873-915)dir. Bu ta’limot Qur’on aqidalariga suyangan holda, jannat va do‘zaxni azaliy mavjud, insonda iroda erkinligi yo‘q, ammo o‘z qilmishlari uchun Alloh oldida javobgar, deb qaraydi.

Al-Ash’ariy ta’limoti bilan Moturidiy ta’limoti o‘rtasida xuddi shofei va hanafiya mazhabidagi kabi keskin farqlar bo‘lmagan, bularning har ikkisi ham hanafiya mazhabi uchun kurashgan allomalardir.

“BAYT UL-HIKMA”- Donishmandlar uyi. Arab xalifasi Ma’mun ibn Xorun ar-Rashid zamonida (813-833) Bog‘dodda tashkil etilgan islom SHarqining o‘sha davrdagi fanlar akademiyasi. Buyuk vatandoshlarimizdan al-Xorazmiy (786-850) va Ahmad al-Farg‘oniylar (797-865) Ma’mun akademiyasida faoliyat yuritganlar.

BAYTULLOH- Makka islom dinining yagona markaziga aylanganidan keyin Ollohning uyi-Ka’baga berilgan nom.

JOME’ MASJIDI- juma namozi o‘qiladigan masjid.

“ZIJ”- astronomik jadval.

“IKKINCHI MUALLIM”- bilimli, ma’rifatli, fikr mulohazalari va mantig‘ining teranligi tufayli SHarqda Abu Nasr Forobiy (873-950)ga Aristotel (Arastu)dan keyingi “Muallim us-soniy”, “Ikkinchi muallim” nomi berilgan.

KALOM (arab.-soʻz, nutq) - ilohiyotning ilk shakli. Arab xalifaligida VIII asrda paydo boʻlgan. IX asrga kelib Oʻrta Osiyoda ham keng tarqalgan. Kalom tarafdorlari mutakallimlar deyilgan. Kalom asoschisi Abdulhasan al-Ashʼariy (873-935) muʼtaziliylarga qarshi qattiq kurash olib borgan va oʻz taʼlimoti bilan sunniylik mazhabini mustahkamlagan. Mantiq va falsafadan foydalanib kalom ilmi boʻyicha oʻz mazhabini yaratgan.

KALOM ILMI - eʼtiqod toʻgʻrisidagi bilimlar, yaʼni aqliy dalillar va mantiqiy uslubdan foydalanib, iymon va eʼtiqodga bogʻliq boʻlgan muommalarni izohlovchi fan. Islom dinining gʻoyaviy asoslari boʻlmish, yaratish, qaytadan tiriltirish, Ollohning borligi va iymon chegaralari, jabru ixtiyor, xayru shaʼr (yaxshilik va yomonlik), tangrining zoti va sifatleri va uning kalomi (Qurʼon) kabi masalalar, kalom ilmining asosiy mazmunini tashkil etadi. Turkistonda Abulhasan Ashʼariy mazhabi boʻyicha samarqandlik Abumansur Motirudiy va qashqadaryolik an-Nasafiylar kalom ilmining nomoyondalari boʻlganlar.

MADRASA (arabcha “darasa” oʻrganmoq) - dars oladigan, oʻqiladigan joy demakdir. Madrasalar musulmonlarning oʻrta va oliy oʻquv yurti. YAqin va Oʻrta SHarq mamlakatlarida hozirgi vaqtda madrasalarda davlat muassasalari xodimlari ham tayyorlanadigan boʻlib ketdi.

Madrasalar dastlab VII-VIII asrlarda Islom dini ulamolari musulmon ilohiyoti masalalarini sharhlab berib turadigan markaz sifatida paydo boʻldi. IX-XIII asrlarda madrasalar Islom dini tarqalgan mamlakatlarda, jumladan Oʻrta Osiyoda ham paydo boʻlib, madrasa uchun maxsus binolar qurila boshlandi. Madrasalarni hukmdorlar, yirik er egalari va davlatmand kishilar oʻz mablagʻlari hisobidan qurdirganlar.

Madrasalarga diniy maktabni bitirgan bolalar qabul qilingan. Madrasalarda taʼlim uch bosqichda; boshlangʻich (adno), oʻrta (avsat) va yuqori (aʼlo) bilimlarda olib borilgan.

Madrasalarda diniy bilimlardan tashqari tibbiyot, aruz ilmi, falsafa, jug‘rofiya va boshqa fanlar ham o‘rgatilgan. Talabalar darsni o‘zlashtirishlariga qarab madrasalarda 15-20 yillab o‘qiganlar.

MASJID(arabcha “sajada”) - egilish, itoat etish, sajda qilib yuzini erga tegizish) so‘zidan olingan bo‘lib, “sajda qilinadigan, ibodat qilinadigan joy” ma’nosini bildiradi. Mahallalardagi masjidlar shu er aholisi kundalik namoz o‘qish uchun, ja’moa masjidlari esa kundalik namoz bilan birga juma va hayit namozlari uchun mo‘ljallangan va ularga shaharning markazidan eng yaxshi joylar ajratib berilgan. Ba’zi masjidlar qoshida boshlang‘ich maktab bo‘lib, bolalar o‘qitilgan. Masjidlar diniy targ‘ibot vazifasini o‘tagan bo‘lsa ham, ularda boshqa turli masalalar ham hal etilgan; oilaviy mojarolarni hal etish, urushganlarni yarashtirib qo‘yish, nojo‘ya ish qilganlarni to‘g‘ri yo‘lga solish kabi.

Masjidlar yonida baland minoralar bittadan to‘rttagacha qurilgan. Bular ko‘proq masjidni bezagi uchun bunyod etilgan.

MAZHAB- oqim, yo‘l, ta’limot. SHariat mazhablari-islomda huquq tizimlari va yo‘nalishlari. VIII-IX asrlarga kelib shariatning shakllanishi jarayonida, ya’ni fiqh-O‘zbekiston tarixi sohasida bir necha mazhablar vujudga kelgan. Hozirgi vaqtda sunniylikda to‘rtta mazhab - hanafiya, molikiya, shofi’iya, hanbaliya; shialikda esa ja’fariya, ismoiliya, zaydiya mashablari saqlanib qolgan. Sunniylikdagi to‘rttala mazhab teng hisoblanadi. Yirik musulmon universitetlarida to‘rt mazhab bo‘yicha alohida dars o‘qitiladi. Mazhablar umuman diniy huquq doirasidan chiqmagan holda, shariat masalalarida engilroq yoki qattiqroq hukm chiqarishlari bilan bir biridan farq qiladilar. Hozir islom mamlakatlarida asosan hanafiya (Turkiya, Pokiston, Hindiston, Movarounnahr, Volgabo‘yi, Sibir, SHimoliy Kavkaz, Qrim), molikiya (Tunis, Jazoir, Liviya, Marokash), shofi’iya (Misr, Indoneziya va h.k.), hanbaliya (Saudiya Arabistoni) mazhablari keng tarqalgan. SHialik tarqalgan mamlakatlar (Eron, Iroq, YAMAN)ning huquqiy hayotida esa ja’fariya mazhabi o‘z mavqeini saqlab kelmoqda.

MAQBARA- qabr ustiga qurilgan yodgorlik binosi, mavzoley. Marqad, turbat deb ham yuritiladi. O'rta Osiyodagi majusiylar (otashparastlar), buddaviylar, nasroniylar qabrlariga qurilgan arxitektura yodgorliklari oddiy ko'rinishga ega. Lekin islom dini ta'sirida vujudga kelgan maqbaralar hashamatli, murakkab imoratlar sifatida taraqqiy etgan. Islomda qabr ustiga yodgorlik qo'yish, unga sig'inish man' etilgan bo'lsa ham, IX asrdan boshlab maqbaralar qurish odat tusini olgan. Keyingi asrlarda, asosan, podshohlar, mashhur islom dini olimlari, shayhlari qabrlari ustiga turli maqbaralar qurildi. Dastlab maqbaralar oddiy ko'rinishga ega bo'lgan bo'lsa, yillar o'tishi bilan maqbaralar tobora katta va ko'rkam, xashamatli qilib barpo etila boshlanganki Ismoil Somoniy, Ahmad YAssaviy, Amir Temur, SHohi Zinda, Tojmahal kabi ulug'vor maqbaralar me'morchilik san'atining yuksak namunalari. Ular bugungi kunda xalq ustalari, me'morlari yaratgan noyob arxitektura durdonalari.

MOLIKIYA- Molik ibn Anas (721-795) tomonidan asos solingan sunniylikdagi huquq mashablaridan biri. Bu mashab tarafdorlari huquq masalalarida ratsionalistik usulga, ya'ni Qur'on va hadislarini aqlga asoslangan holda talqin qilishga qarshi chiqqan. Dastlab Hijoz va Madinada, keyin boshqa mamlakatlarda tarqalgan. Hozirda Tunis, Jazoir, Marokash, Liviya va ayrim Afrika mamlakatlarida tarafdorlari bor.

RENESSANS (fr.Renaissance - uyg'onish) - aynan qadimiy mumtoz yunon madaniyati, fani, falsafasining tiklanishi. Antik (qadimgi) davrga xos hayotni his etishga yaqin, lekin o'rta asrlardagi kabi moddiylikni gunoh deb hisoblab undan voz kechishni ham inkor etilishi. YAngicha hissiyotlarning, hayot nashidasini sezishning paydo bo'lishi demakdir.

SHarq renessansi va G'arb renessansi mavjud. SHarq renessansi IX-XII va XIV-XV asrlarni o'z ichiga olsa, G'arb renessansi XIII asrdan boshlanadi. G'arb renessansi ko'pincha uyg'onish davri deb ham yuritilib, uning ilk kurtaklari Italiyada paydo bo'lgan. Tomazzo Kompanelli, Franchesko Petrarka, Jovanni Bokacholar uyg'onish davri madaniyatining asoschilari edilar.

SUNNA- Muhammad Payg‘ambarning ko‘rsatmalari va oyatlari haqidagi hadislar, rivoyatlar. Islomda faqat Muhammad ibratini, an‘anasi deb e‘tirof etilib, Qur‘oni Karimdan keyingi muqaddas manba hisoblanadi. Sunna VII asr o‘rtalaridan yig‘ila boshlangan.

TARIQAT- tasavvuf qoidalariga amal qilib yashash, ya‘ni, komil inson darajasiga erishishni ko‘rsatuvchi to‘g‘ri yo‘l.

TAFSIR- umumiy ma‘noda biron narsani sharhlash, talqin qilish. Islom an‘anasida Qur‘oni Karim, hadisi sharif va boshqa diniy manbalarni talqin qilish, sharhlash.

FARZ- shariatda hamma musulmonlar bajarishi shart bo‘lib, qat‘iy dalillar, ya‘ni oyat va hadislar bilan isbotlangan diniy hukmlar. Masalan, namoz, ro‘za, haj, zakot.

FIQH- islom huquqshunosligi, shariat qonun-qoidalarini ishlab chiqish bilan shug‘ullanuvchi islom ilohiyotining bir sohasi.

XATIB- odatda masjidda juma va diniy bayram kunlari, ya‘ni hayit namozlari paytida xutba o‘qiydigan dindor.

XUTBA- juma va ulug‘ ayyom kunlari masjidda imom-xatib tomonidan aytiladigan oyatu hadislar, pandu nasihatlar. SHuningdek, o‘rta asrlarda xalifa va mahalliy hukmdor nomini tilga olib imom tomonidan o‘qiladigan duo ham xutba deb atalgan.

XONAQOH- shayh va darveshlar zikru samo qiladigan xona, masjid. Islom dini tarqalishi bilan yuzaga kelgan. Darvishlar, ziyoratchilar uchun tunash joyi sifatida masjid, maqbaralarning bir qismi tarzida qurilgan. Keyinchalik mahalla, qishloq masjidlarining namoz o‘qiladigan xonasi ham xonaqoh deb atalgan.

XO‘JA- ijtimoiy tabaqa. Xo‘jalarning kelib chiqishi haqida turli fikrlar mavjud. Ba‘zi ma‘lumotlarda xo‘jalar dastlabki to‘r xalifa –Abu Bakr, Umar, Usmon va Alilardan tarqalgan deyilsa, boshqa manbalarda arablarning istilochilik

yurishlarida boshchilik qilgan sarkardalarning nasli deb hisoblanadi. Xo‘jalar islom oqsuyak tabaqasi sifatida ma’lum imtiyozlarga ega bo‘lganlar. Ular ko‘p holarda o‘lim, tan jazosi, urushlarda qatnashish hamda soliq to‘lashdan ozod etilganlar. Xo‘jalar qizini oddiy fuqaroga berish man etilgan.

SHAYX(arab.- keksa, oqsoqol) - arablarda islomdan ilgari urug‘, qabila boshliqlari, katta oila oqsoqollari shayx deb atalgan. Keyinchalik esa islom dini tarqalgan mamlakatlarda avval bilimdon kishilar, olimlar, so‘ngra ruxoniylar, ulamolar, keyinchalik tasavvuf tariqatidagi pirlar, eshonlar va muqaddas joylarning mutasaddilari ham shayx deb yuritilgan.

“SHAYX UR-RAIS”- Abu Ali ibn Sinoga SHarqda berilgan unvon.

SHIALIK- islomdagi asosiy yo‘nalishlardan biri. O‘zining keng yoyilishi jihatdan sunniylikdan keyingi ikkinchi o‘rinda turadi. SHialik VII asr o‘rtalarida xalifa Ali hokimiyati tarafdorlaridan iborat siyosiy guruh sifatida vujudga kelgan. SHialar sunniylar kabi Qur‘oni Karimni ilohiy deb e’tirof etadilar, lekin xalifalar davrida uning ayrim qismlari tushirib qoldirilgan deb hisoblaydilar. Sunnada esa ular faqat Ali nomi bilan bog‘liq hadislarini tan olganlar va shunday hadislardan iborat mustaqil to‘plam “Axbor”ni tuzganlar.

SHialar sunniylar kabi Makka va Madinani “muqaddas” hisoblash bilan birga, Karbalo, Najaf shaharlarida joylashgan yirik shia imomlari qabrlarini ham ziyorat qiladilar.

Hozir jahondagi musulmonlarning 10 foizi shialikkka mansub. SHialik hozirgi vaqtda Eronda hukmron e’tiqod hisoblanadi. Iroq, Livan, Afg‘oniston, Hindiston, Pokiston, Tojikiston va Ozarbayjonda ham shialar bor.

SHOFI’IYA- sunniylikdagi diniy huquqiy mazhablardan biri. Abu Abdulloh Muhammad ibn Idris ash-SHofi’iy (767-820) asos solgan. Hozirda Suriya, Misr, Indoneziya, SHarqiy Afrika va Janubiy Arab mamlakatlarida bu mazhab huquq tizimiga amal qiluvchilar bor.

QALANDAR- so‘fiylik yo‘liga kirib, mehnat qilmasdan darbadarlik, gadolik va hayr-ehson yo‘li bilan kun kechiruvchi kishilar faoliyati. Qalandarlar muayyan

jamo'a (suluk) larga birlashib, uning g'oyalarini targ'ib etganlar. Naqshbandiya, YAssaviya, Qubraviya, Qadariya qalandarlikning mashxur suluklaridandir.

Keyingi asrlarda qarmatiylar qattiq ta'qib ostiga olinganlar.

QOZI- shariatda sudya, huquqiy ishlarni hal etuvchi vazifasini bajaruvchi mansabdor. Qozi, shuningdek vasiylikka, vasiyatning bajarilishiga, meros taqsimotiga tegishli ishlarni amalga oshirgan. Qozilar hukmi qat'iy bo'lib, ular ustidan faqat xon va amirga shikoyat qilishgan. Qozikalon eng yuqori darajadagi qozi bo'lib, u hamma qozilar ustidan nazorat qilgan. Qozi-ul quzzot -qozikalon o'rinbosari hisoblangan.

QORI- Qur'oni karimning barcha suralarini yod olgan va qiroat bilan o'qiydigan kishi. Qorilarni tayyorlaydigan maktablar – “dorul-huffoz” deb yuritiladi.

QUR'ONI KARIM- Qur'oni Karim Er yuzi musulmonlarining dasturamali, diniy ahkomlar manbai. Muhammad Payg'ambarimiz 40 yoshga to'lgan vaqtlarida Haq taolo Jabroil alayhissalom orqali payg'ambarlik vahiysini yubora boshlagan. Qur'oni Karimning birinchi oyati ham shu ondan nozil qilina boshlangan. Qur'oni Karimning sahifalarini jam qilish va to'liq kitob shakliga keltirish Muhammad Payg'ambar vafotidan keyin boshlanib, bu ish xalifa Usmon zamonida (644-656) yakunlanadi. SHu davrda yaratilgan Qur'onning to'rtta nusxasidan bittasi Turkistonga ham etib kelgan bo'lib, u hozirda Movarounnahr diniy idorasi kutubxonasida saqlanmoqda.

Qur'oni Karimda 114 ta sura, 6236 ta oyat bor.

HADIS- islom dini ta'limoti bo'yicha Qur'oni Karimdan keyin turadigan ikkinchi muqaddas manba bo'lib, Muhammad Payg'ambarning hayoti va faoliyati, shuningdek uning diniy va ahloqiy ko'rsatmalarini o'z ichiga oladi. Payg'ambar biron gap aytgan yoki biror ishni qilib ko'rsatgan bo'lsa, yohud boshqalarning o'zlariga qilayotgan biron ishini ko'rib, uni ma'n etmagan bo'lsa, shu holatning har biri sunnat hisoblanadi. Ana shu hatti-harakatlar yoki ko'rsatmalar haqidagi rivoyat hadis deb yuritiladi.

HANAFIYA- sunniylikdagi huquq mazhablaridan biri. Abu Hanifa an-No‘‘mon (VIII asrda yashagan) asos solgan. Iroqda vujudga kelib, islom tarqalgan barcha mamlakatlarda jumladan Xuroson va Movarounnahrda ham keng tarqalgan. Burhoniddin Marg‘iloniyning “Hidoya” to‘plami bu mazhabning asosiy to‘plamlaridan biri sifatida tanilgan. Abulhasan Ali ibn Ismoil al-Ash‘ariy (873-915) va Abu Mansur Muhammad ibn al-Moturidiylar ham ushbu mashabning yirik vakillari bo‘lishgan. Hanafiya qonunlari nisbatan yumshoqroq va qo‘layroqligi, xalqlarning mahalliy an‘analarini e‘tiborga olganligi sababli keng yoyilgan. Sunniylik yo‘nalishiga mansub bo‘lgan musulmonlarning uchdan bir qismidan ko‘prog‘i bu mazhabga kiradi. U bir necha arab davlatlarida, Afrikaning ayrim mamlakatlarida, Turkiya, Hindiston, Xitoy, Pokiston, Bangladesh, Afg‘oniston, O‘rta Osiyo, Tatariston musulmonlari orasida keng tarqalgan.

HANBALIYA- sunniylikdagi diniy huquqiy mazhablardan biri. Ahmad ibn Hanbal asos solgan. Hanbaliya huquq tizimi o‘ta torligi, har qanday ko‘rinishdagi “yangilik”ka, diniy masalalarda erkin fikr yuritishga qarshiligi, shariat normalariga rioya etishda qat‘iyligi bilan ajralib turadi. SHuning uchun ham bu mazhab keng tarqalmagan. X asrda Eronda, XII asrdan XV asrgacha Suriya va Falastinda hanbaliya izdoshlari ko‘p bo‘lgan. Undan keyingi asrlarda tarafdorlari kamayib ketgan. XVIII asrda paydo bo‘lgan vahhobiylar hanbaliya tarafdorlari bo‘lib chiqqanlar. Vahhobiylar Saudiya Arabistonida hokimiyatni qo‘lga olgach (XX asrning 20-yillarida), Hanbaliya qonunlarini amalga kiritganlar. U erda bu mazhabning ilk islomga xos qonunlari hozir ham amalda. Hanbaliya Saudiya Arabistonidan boshqa mamlakatlarda kam uchraydi.

XULOSA

Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish davrida Uygʻonish davri allomalarining ijodini ijtimoiy falsafiy, tarixiy nuqtai nazaridan oʻrganish, tadqiq qilish, muhim ilmiy amaliy, nazariy ahamiyatga egadir.

Mamlakatimizda, oʻtmish avlodlarimizning madaniy merosini asos qilib olgan holda, maʼnaviy yangilanish sari sobitqadamlik bilan borayotganligimizning boisi ham shunda. Bugungi kunda buyuk davltimiz poydevorini qurishda al-Beruniy, Ibn Sino, Muxammad Xorazmiy, Ahmad Fargʻoniy, al-Buxoriy, at-Termiziy, Amir Temur, Ulugʻbek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi bobolarimizning bebaho merosi katta ahamiyatga egadir. SHuningdek, ularning gʻoyalari, qarashlari mustaqil Oʻzbekistonning milliy mafkurasini shakllantirishda beqiyos muhimdir.

Xulossa qilib aytganda birinchi Prezidentimiz Islom Karimov aytganidek, ” Milliy mafkuramiz, birinchi navbatda xalqimizning azaliy anʼanalariga, udumlariga, tiliga, diniga, ruxiyatiga, bir soʻz bilan aytganda, milliy qadriyatlarimizga, xalqimizning dunyoqarashi va tafakkuriga asoslanib, shu bilan zamonaviy, umumbashariy, umuminsoniy yutuqlardan oziqlangan, ularni oʻzida qamrab olgan holda yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq manfaati va farovonligi yoʻlida xizmat qilmogʻi darkor”. SHu bois ushbu mavzuni oʻrganish yoshlarimizda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, soxta gʻoyalarga ergashib ketmaslikda katta ahamiyatga egadir.

Bitiruv malaka ishini yakunida quyidagi takliflarga kelindi:

1.Fuqarolik jamiyati rivojlanishi sharoitida Uygʻonish davri allomalarining tarixiy qarashlari, falsafiy taʼlimoti, inson kamolotiga doir xulosalari, ilmiy qarashlaridan

ta'lim muassasalari, jamoat tashkilotlari, nodavlat notijorat birlashmalarining o'quvchi, talaba yoshlar bilan olib boradigan ma'naviy, axloqiy, tarbiya sohasidagi faoliyatida keng foydalanish kerak.

2.O'zbekiston tarixi fanini nazariy, ilmiy, metodologik, metodik va o'quv qo'llanmalari, darsliklar, xrestomatiyalar yaratish, O'zbekiston tarixi"IX-XII asrlar O'rta Osiyo xalqlari hayotida yuz bergan uyg'onish davri. Ajdodlarimizning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi" mavzusi bo'yicha innovatsion yangiliklarni umumlashtirish, ulardan o'quv jarayonida samarali foydalanish, kafedralardagi ilmiy salohiyatni ko'tarish, o'zaro tajribalar almashinuvini yo'lga qo'yish uchun Respublika miqyosida muntazam faoliyat ko'rsatadigan ilmiy seminarni joriy etish maqsadga muvofiqdir.

3.Amaldagi "Oliy ta'limning bakalavriat ta'lim yo'nalishlari o'quv rejalaridagi gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bloki mazmuniga qo'yilgan davlat talablari"ni hozirgi kun talabidan kelib chiqqan xolda tanqidiy o'rganib chiqish asosida O'zbekiston tarixi fani bo'yicha DTS va namunaviy dasturlarga jiddiy o'zgartishlar kiritish zarurdir. Xozirgi globallashuv jarayonidagi o'zgarishlar 3 ming yillik tarixga ega bo'lgan O'zbekiston tarixi fani va uning mazmuniga jiddiy o'zgartishlar kiritishni hayotning o'zi taqazo etmoqda. Xozirda oliy o'quv yurtlarida, litsey va kollejlarda O'zbekiston tarixini o'qitishning mazmuni, hajmi, shaklu-shamoilini boyitish, bu fandani ta'lim berishda ilg'or horijiy tajribalar, sohaga oid innovatsiyalardan kelib chiqqan holda unga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish lozim.

4.Barcha oliy o'quv yurtlarida O'zbekiston tarixi kafedralarini tashkil etish zarur. Chunki, mustaqillik arafasida, Istiqlolning dastlabki yillarida deyarli barcha oliy o'quv yurtlarida O'zbekiston tarixi kafedralari tashkil etilgan va ular samarali faoliyat ko'rsatgandilar. Biroq ayrim sub'ektiv omillar bilan ko'pchilik oliy o'quv yurtlaridagi, xatto ko'pchilik universitetlardagi O'zbekiston tarixi kafedralari boshqa ijtimoiy fan kafedralari bilan qo'shib yuborildi. Bu bizningcha o'ta xatolikdir.

5.Oliy o‘quv yurtlaridagi notarix yo‘nalishlarida xozirgidek O‘zbekiston tarixini birinchi kurs talabalariga 1-semestrda emas, balki, bu fanni 1-2-semestrlarda o‘qitilishiga erishish lozim. SHuningdek, bu fan uchun ajratilgan soatni teng barobarga ko‘paytirish kerak.

6. Fanning o‘quv dasturi me‘yoriy xujjat sifatida Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim faoliyatining asosi bo‘lib hisoblanadi, unda o‘quv fanlari bo‘yicha talabalar tomonidan o‘zlashtiriladigan asosiy bilim, zaruriy ko‘nikma va malakalar nazarda tutiladi. Biroq fan namunaviy dasturi 2011 yilda tajriba sinov tariqasida tasdiqlanib tavsiya etilgan bo‘yicha yangilangani yo‘q.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Rahbariy adabiyotlar.

Karimov I. A. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. – Toshkent.: O‘zbekiston, 1995. -269 b.

1. Karimov I. A. YAngicha fikrlash va ishlash – davr talabi. – Toshkent.: O‘zbekiston, 1997. T.5. -384 b.

2. Karimov I. A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. T.7. – Toshkent.: O‘zbekiston, 1999. -139 b.

3. Karimov I. A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. – Toshkent.: O‘zbekiston, 2000. T.8. -528 b.

4. Karimov I. A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas’ulmiz. – Toshkent.: O‘zbekiston, 2001. T.9. -439 b.

5. Karimov I. A. Jamiyatni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma’naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish-barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. –Toshkent.: O‘zbekiston, 2007, T. 15. -126 b.

6. Karimov I. A. YUksak ma’naviyat - engilmas kuch. –Toshkent.: Ma’naviyat, 2008. -176 b.

7. Karimov I. A. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” nomli ma’ruzasi // Xalq so‘zi. 2010 yil 13 noyabr.

8. Karimov I. A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir – T.. O‘zbekiston, 2015. – 304 b.

9. Mirziyoev SH. M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent.: O‘zbekiston, 2017.

10. Mirziyoev SH. M. Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - Toshkent.: O‘zbekiston, 2017.

11. Mirziyoev SH. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent.: O‘zbekiston, 2017.

II. Me’yoriy- huquqiy xujjatlar.

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T., 2014.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 yil. 9-son, 225-modda.
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 yil. 11-12-son, 295-modda.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2012 yil 28 dekabrda “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim xamda oliy malakali ilmiy va ilmiy pedagogik kadrlarni attestatsiyadan o‘tkazish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi № 365 sonli Qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2009 yil 11 iyundagi 204-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to‘g‘risida”gi Nizom. Ushbu Nizomga O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2010 yil 25 avgustdagi 333-son va 2013 yil 13 dekabrda 470-sonli buyrug‘lari bilan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan hamda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 1981-2 - son bilan davlat ro‘yxatidan qayta o‘tkazilgan. (O‘R QHT, 2013 y., 50-son, 659-modda).
6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2014 yil 31 martda “Oliy ta’lim muassasalarida talabalarini me‘yoriy-xujjatlar bilan ta’minlash to‘g‘risida”gi № 114 - sonli buyrug‘i.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 10 yanvarda “Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’limning Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” 2001 yil 16 avgustda 343-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi №3-sonli Qarori.
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ta’lim tizimi uchun davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to‘g‘risida" 1998 yil 5 yanvarda 5-son Qarori.
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 20 avgustda “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va

ularning malakasini oshirishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi № 242-sonli Qarori.

III. Maxsus adabiyotlar.

1. Oliy ta’lim. Me’yoriy-huquqiy va uslubiy xujjatlar to‘plami. “Istiqlol” -T., 2004.
2. Oliy ta’limning me’yoriy - huquqiy xujjatlari to‘plami. -T., 2013.
3. Krasnova G.A. Otkritoe obrazovanie: sivilizatsionnie podxodi i perspektivi. -M.: RUDN. 2002.
4. Region: Upravlenie obrazovaniem po rezultatam Teoriya i praktika/ Pod redaksiyey P.I.Tretyakova. -M.: Novaya shkola. 2001.
5. Bolyubash YA.YA. Organizatsiya uchebnogo protsessa v visshix uchebnix zavedeniyax. - K.: Kompas, 1997.
6. Topildiev V.R. Ta’lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishning me’yoriy-huquqiy asoslari. –T.,2015. 164-bet.
7. Abdunabiev A. Vklad v mirovuyu sivilizatsiyu. – T.: 1998.
8. Buyuk siymolar, allomalar (1 – 2 kitob). – T.: Meros, 1995, 1996.
9. Jumaniyazov M. Ma’mun akademiyasi. -Urganch: 1994.
10. Xorazm Ma’mun akademiyasi. Ilmiy monografik to‘plam. – T.: 2005.
- 11.Rustamov I. Abu Ali ibn Sino falsafasidan lavhalar. Monografiya, 2012 yil,
- 12.Rustamov I. Philosophical heritage of Abu Ali Ibn Sina as an important source in the education of the modern specialists. SCIENCE ISSUE 1 – 2015 UNITED STATES THE ADVANSED SCIENCE JOURNAL.
- 13.Rustamov I. Ibn Sinoning ijtimoiy – falsafiy ta’limoti. Monografiya. Toshkent. Fan, 2015 yil.
- 14.Rustamov I. Ibn Sino inson ma’naviyati xaqida. “Falsafa va xuquq” ijtimoiy – siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, falsafiy-xuquqiy jurnal, 2015 yil 1 son

15. Rustamov I. Ibn Sinoning falsafiy merosi. O‘zMU xabarlari №1/2. 2016 yil.

16. Rustamov I. Ibn Sino ta’limotida inson kaolotining falsafiy taxlili. NamDU ilmiy axboroti. 2016 yil 1 son

IV. Elektron ta’lim resurslari:

1. “Xalq so‘zi” gazetasi – www.infoXS.Uz
2. “Turkiston” gazetasi – www.turkistonsarkor.uz
3. “Ma’rifat” gazetasi – www.ma’rifat-inform.uz
4. “Jamiyat va boshqaruv” jurnali – www.rzultacademyfreenet.uz
5. “Moziydan sado” jurnali – www.moziy.dostlink.net
6. Ziyonet – www.ziyonet.uz

IX-XII asrlarda markaziy osiyoda uyg‘onish davri madanyatini tarixiy faktlarda ochib berilgan va bu madanyatni boshqa renesanslardan farqli, o‘xshash jihatlatlari va mazmuni ochib berilgan. Birgina Mamun akademiyasini tarixiy kitoblar orqali ochib berilgan.

In Central Asia in the IX-XII centuries, the Renaissance periodology was revealed in historical facts, and it differs from other genealogical, similar features and content. Only Mamun Academy was opened through historical books.

В Центральной Азии в IX-XII веках периодология эпохи Возрождения была обнаружена в исторических фактах, и она отличается от других генеалогий, сходств и содержания. Только Мамунская Академия была открыта через исторические книги.